

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

(I–qism. Microsoft Windows muhitida ishlash bo‘yicha qo‘llanma)

Toshkent – 2005

Tuzuvchi “Tarmoq texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi **T.A. Maxarov**

Muharrir: **Yu. Sobirxoniva**

Qo‘llanmadagi materiallar zamonaviy, milliy, chet el adabiyotlari va Internet saytlaridan foydalanib ishlab chiqilgan. Qo‘llanma Windows muhitida ishlashda talabalarga yaqindan yordam beradi.

Qo‘llanma barcha yo‘nalishlar bo‘yicha bakalavr toifasidagi talabalar uchun tavsiya etilgan.

1.Windows bilan ishlash asoslari


1.1. Bosh menyudan buyruqlarni tanlash

Bosh menyu hujjatlarni ochish va dasturlarni ishga tushirish uchun *Windows* tizimining asosiy anjomidir. Bosh menyuni ham sichqoncha, ham klaviatura orqali boshqarish mumkin.

Bosh menyu *Пуск* tugmasini bosish bilan ochiladi (1.1-rasm).

Zarur bo‘limni tanlash sichqoncha ko‘rsatkichini surish bilan bajariladi. O‘ng tomondagi kichkina uchburchak – bu bo‘lim ichki menyuga ega ekanligini bildiradi. Ichki menyuni ochish uchun uning ustida sichqoncha ko‘rsatkichini bir oz ushlab turish, yoki chap tugmasini bosish kifoya.

Bir necha ichki menyularni ketma-ket ochib, zarur bo‘limga yo‘l ochish mumkin. Agar menyu noto‘g‘ri ochilsa, ko‘rsatkichni oldingi menyuga qaytarib, qayta to‘g‘risini tanlash mumkin.



1.1-rasm. Ichki menyularni ochish

Dasturni ishga tushirish, yoki hujjatni ochish, menyuning zarur buyrug‘ida sichqoncha tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi.

Bosh menyuni yopish uchun uning tashqarisida sichqoncha tugmasini bosish kifoya. Bosh menyu bilan sichqonchadan tashqari, klaviatura yordamida ham ishlash mumkin. Bu usul *Пуск* tugmasi yashirin bo‘lsa

yoki sichqonchadan foydalanish noqulay bo'lsa, Bosh menyuga murojaat qilish imkonini beradi.

Bosh menyu yuqori darajasiga chiqish uchun **Ctrl** + **Esc** klavishlar kombinatsiyasi yoki maxsus "Windows" klavishidan foydalaniladi.

Zarur bo'lim yuqoriga **↑** va pastga **↓** klavishlari yordamida tanlanadi.

Ichki menyuni ochish uchun o'ngga **→** klavishidan foydalaniladi. Orqaga qaytish chapga **←** klavishi orqali bajariladi.

Tanlangan buyruqni bajarish uchun **Enter** klavishi bosiladi.

Bosh menyuni yopish uchun **Esc** klavishidan foydalanish mumkin.


1.2. Dasturlarni ishga tushirish

Har qanday tizimning, shu jumladan Windows tizimining asosiy vazifasi dasturni ishga tushirishni ta'minlashdir.

Dasturni ishga tushirishning eng sodda usuli – uning nishoni yoki yorlig'ida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish hisoblanadi.

Agar dastur nishoni avvaldan tanlangan bo'lsa, **Enter** klavishini bosib dasturni ishga tushirish mumkin. Nishonni tanlashni kursorni boshqarish klavishlaridan, yoki sichqoncha chap tugmasini bir marta bosish bilan bajarish mumkin.

Dastur uchun qidirish yo'li ma'lum bo'lsa, *Проводник* dasturi yoki ixtiyoriy papka oynasida *Адрес* panelidan foydalanish mumkin.



1.2-rasm. Dasturni ishga tushirish

Dasturni ishga tushirish uchun kontekstli menyudan ham foydalanish mumkin (1.2-rasm). Buning uchun nishon yoki yorliqda sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Открыть* buyrug'i tanlanadi.

Главное меню: Пуск ▶ Выполнить buyrug'i orqali ochiluvchi *Запуск программы* muloqot oynasi dasturlarni ishga tushirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu oynaning *Открыть* maydonida bajarilayotgan faylni qidirish yo'li kiritilishi kerak. Agar qidirish yo'li noma'lum bo'lsa yoki qo'lda kiritish noqulay bo'lsa, *Обзор* tugmasidan foydalaniladi. *Обзор* muloqot oynasi bajarilayotgan faylni qidirish imkonini beradi va *Открыть* maydoniga qidirish yo'li avtomatik ravishda kiritiladi.

Dasturni ishga tushirish uchun *OK* yoki Enter klavishi bosiladi.

1.3. Hujjatni ochish

Windows tizimida hujjatlarni ochishning bir necha usuli mavjud. Hujjat turi tizim ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, qaysi dastur orqali ochishni tizimning o'zi aniqlaydi. Faraz qilaylik, hujjat ochilgan papka oynasida joylashgan bo'lsin. Hujjatni ochish uchun uning yorliq yoki nishonida sichqoncha chap tugmasi ikki marta bosiladi.


Agar nishon avvaldan ajratilgan bo'lsa, hujjatni Enter klavishini bosish bilan ham ochish mumkin. Nishonni tanlash uchun sichqoncha chap tugmasini bir marta bosish yoki kursorni boshqarish klavishlaridan (yo'naltirish klavishlari) foydalanish mumkin. Bundan tashqari hujjatni ochish uchun kontekstli menyudan ham foydalanish mumkin. Buning uchun hujjat nishonida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Открыть* satri tanlanadi.

Agar hujjat turi *Windows* tizimidan ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, uni ochish bir oz murakkablashadi. Bunda qanday dastur yordamida ochish zarurligi ko'rsatilishi lozim. Ro'yxatdan o'tmagan hujjatni ochishda ekranda *Открыть с помощью* muloqot oynasi ochiladi (1.3-rasm).

Выберите используемую программу ro'yxatida hujjatni ochishga yordam beruvchi dastur tanlanadi.

Всегда использовать выбранную программу qo'yilmasiga bayroqcha o'rnatilsa, fayl turi avtomatik ro'yxatdan o'tkaziladi va keyinchalik bunday hujjatlarni ochish oson bo'ladi.

Bunday hollarda *Описание файлов* maydoniga bu turdagi hujjat haqida qisqacha ma'lumot kiritilishi ham mumkin.




1.3-rasm. Windows tizimida ro‘yxatdan o‘tmagan faylni ochish

Zarur ma’lumotlarni kiritish *OK* tugmasini bosish bilan tugallanadi.

1.4. Hujjat yoki dasturga nishon yaratish

Ish stoli yoki papkada yorliqning mavjudligi hujjatning ochilishini osonlashtiradi. Nishon yaratishda dasturning ishlash rejimini beruvchi buyruq satri parametrlarini ham ko'rsatish mumkin.

Papka oynasi yoki ish stolida nishon yaratish uchun sichqoncha o'ng tugmasi bosilib, ochilgan kontekstli menyuda *Создать* ▶ *Ярлык* bo'limlari tanlanadi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Yorliq yaratish

Создание ярлыка master-dasturi ishga tushiriladi. Ishga tushirish buyrug‘i *Создание ярлыка* ustasi oynasining *Командная строка* maydoniga kiritiladi.

Ishga tushirilishi lozim bo‘lgan mundarijani *Обзор* tugmasi yordamida ham qidirish mumkin. Zarurat tug‘ilganda buyruqlar satrida qo‘shimcha parametrlar ko‘rsatiladi. Navbatdagi bosqichga o‘tish uchun *Далее* tugmasidan foydalaniladi. *Укажите название ярлыка* maydonida yaratilayotgan yorliq (nishon) nomi kiritiladi. So‘ngra *Далее* tugmasi bosiladi. Agar tanlangan mundarija nishonga ega bo‘lmasa, *Windows* tizimi standart nishonlardan birini tanlashni taklif etadi. Shu bilan ma’lumotlar yig‘ish tugallanadi. *Готово* tugmasini bosish yorliq yaratishga olib keladi. Agar nishon faqat qulaylik uchun kerak bo‘lsa, buyruqlar satrida parametrlarni berish shart emas, *maxsus surish* usulidan foydalanish mumkin.

Buning uchun nishon yaratilayotgan papkani *Проводник* dasturida yoki *Мой компьютер* oynasida ochish zarur. Ko‘rsatkich nishonga qo‘yilib, sichqoncha o‘ng tugmasini bosib turgan holda nishon Ish stoliga yoki boshqa papkaga ko‘chiriladi.

Sichqoncha tugmasi qo‘yib yuborilganidan so‘ng kontekstli menyuda *Создать ярлыки* buyrug‘i tanlanadi. Ish stolida standart *Ярлык для...* nomi bilan yorliq hosil bo‘ladi. Yorliq nomini keyin o‘zgartirish ham mumkin. Buning uchun sichqoncha o‘ng tugmasi bosilib, kontekstli menyuda *Переименовать* buyrug‘i tanlanadi.


1.5. Papka yaratish

Qattiq diskda papkalar fayllarni alohida saqlash uchun xizmat qiladi. Ular fayllarni qidirishni osonlashtiradi va ma’lum bir mavzuga taalluqli fayllarni bir joyda saqlash imkonini beradi. Yangi papka Ish stolida yoki ixtiyoriy diskda, ixtiyoriy papka ichida yaratilishi mumkin. Ichki papka yaratish uchun papka *Проводник* dasturi yoki *Мой компьютер* oynasida ochilishi kerak. Ish stolida papka yaratish uchun u oynalar bilan to‘liq berkitilmagan bo‘lishi lozim.

Yangi papka yaratiladigan joyda sichqonchanning o‘ng tugmasini bosib, ochilgan menyuda *Создать* ▶ *Папку* bo‘limlarini tanlab, yangi papka yaratish mumkin. Oyna bilan ishlashda quyidagi buyruqlar ketma-ketligini berish ham mumkin: *Файл* ▶ *Создать* ▶ *Папку* (1.5-rasm).

Papka yaratilgandan so‘ng, darhol nomini o‘zgartirish zarur. Yangi nom kiritishni boshlash bilan eski nom avtomatik ravishda o‘chiriladi.

Papka nomini kiritish **Enter** klavishini bosish bilan yakunlanadi. Agar kiritilgan nom mavjud papka yoki fayl nomi bilan mos kelsa, xatolik haqida ma'lumot chiqariladi. Bunda kiritilayotgan nomni o'zgartirishga to'g'ri keladi.



1.5-rasm. Yangi papka yaratish


Ayrim hollarda hujjatni yaratish jarayonida yangi papka yaratishga to'g'ri keladi. Bunda boshqa oynaga o'tish zarurati tug'ilmasligi uchun *Сохранение файла* muloqot oynasi *Создание новой папки* tugmasiga ega. Bu tugma "ishning borishi jarayonida" yangi papka yaratish imkonini beradi.

Ichki papka yaratiluvchi papkani tanlash uchun *Папка* ro'yxatidan yoki *Сохранение файла* muloqot oynasining ishchi sohasidan foydalanish mumkin.



Создание новой папки nishonida sichqoncha tugmasi bosiladi. *Имя* maydonida berilgan *Новое имя* o'rniga yaratilishi lozim bo'lgan

papka nomi kiritiladi (16-rasm) va *OK* tugmasi bosiladi. Soʻngra yaratilgan papkani ochib, unda xujjanni saqlash mumkin.



1.6-rasm. Papka yaratish

1.6. Ekranda oynalarni joylash

Oynalar - *Windows 9X* ning asosiy obyektlari hisoblanadi. Papkalar va hujjatlarni ochishda, hamda dasturlarni ishga tushirishda ekranda oynalar ochiladi. Amaliyotda koʻpgina hollarda bir vaqtda bir necha oynalar bilan ishlashga toʻgʻri keladi. Bunday hollarda oynalarlar *Ish stoliga* shunday joylashtiriladiki, natijada ular bilan ishlash qulay boʻlsin.

Ish stolida oynalarni joylashtirish sarlavha satridan "ushlangan" holda surish usuli bilan bajariladi. Buning uchun sichqoncha koʻrsatkichi sarllavha satriga olib kelinib, chap tugma bosib turilgan holda koʻrsatkich suriladi. Hatijada oyna ham suriladi (1.7-rasm).


Yana bir usuli oyna oʻlchamlarini oʻzgartirish. Buning uchun sichqoncha koʻrsatkichi oyna chegarasiga olib kelinadi. U ikki tomonlama koʻrsatkichli yoʻnaltirgich shaklini oladi. Shu holatda sichqoncha chap tugmasini bosib turgan holda harakatlantirish oyna oʻlchamining oʻzgarishiga olib keladi.

Agar sichqoncha bilan tortish burchakdan boshlansa (u ogʻma yoʻnaltirgich koʻrinishini oladi), bir vaqtda ham gorizontal, ham vertikal ravishda oʻlchamni oʻzgartiradi.

Oynaning yangi chegarasi kulrang chiziq bilan belgilanadi. Sichqoncha tugmasini qoʻyib yuborish bilan oyna oʻlchami bu ramkaning joylashuvi bilan mos ravishda oʻzgaradi.

Sichqonchadan foydalanmasdan oyna o'lchamlarini o'zgartirish ancha noqulay. Ammo sichqoncha ishlamayotgan bo'lsa, quyidagi usul qo'l kelishi mumkin.

Alt + **Bo'shliq** (Probel) klavishlar kombinatsiyasi yordamida xizmatchi menyu oynasi ochiladi va *Размер* buyrug'i tanlanadi.



1.7-rasm. Oyna o'lchamlarini o'zgartirish


Ko'rsatkich to'rt tomonga yo'nalishli kesishma (krest) ko'rinishini oladi. Kursorni boshqarish klavishlari yordamida uni chegaraga yoki oyna ramkasi burchagiga surish mumkin – u ko'rinishini ikki tomonlama yo'nalishli ko'rsatkichga o'zgartiradi. So'ngra kursorni boshqarish klavishlari yordamida oyna o'lchamlarini o'zgartirish mumkin.


Oyna chegarasining kerakli o'lchami hosil qilingandan so'ng **Enter** klavishi bosiladi.


Izoh. Kursorni boshqarish klavishlarini bosish o'lchamlarni fiksirlangan kattalikka o'zgartiradi. Agar bunda **Ctrl** klavishi bosib turilsa, oyna o'lchamlari ancha aniqlik bilan (pikselgacha aniqlikda) o'zgaradi.


1.7. Oynani yig'ish va yoyish

Ishchi soha oynaning mumkin bo'lgan maksimal qismini band etsa, oyna bilan ishlash qulay. Oynani *yoyish*da uning ishchi sohasi ortadi va surish yo'lakhasidan kam foydalanish imkonini beradi. *Yig'ish* oynani vaqtincha Ish stolidan olib qoyish imkonini yaratadi (1.8-rasm).

Oynani yoyish uchun sarlavha satrining o'ng tomonida joylashgan yoyish  tugmasidan foydalaniladi. Oyna yoyilgandan so'ng, u tiklovchi tugma bilan almashtiriladi.

Oynaning avvalgi o'lcham va holatini tiklash mumkin. Buning uchun sarlavha satrida joylashgan tiklash  tugmasidan foydalaniladi. Bu holda uning o'rnini yana yoyuvchi tugma egallaydi.


Oynani yig'ish uchun xuddi shu sarlavha satrida joylashgan yig'ish  tugmasidan foydalaniladi. Bunda oyna Ish stolidan olinadi, ammo Masalalar panelida unga mos qo'yilma qoladi. Masalalar panelida bu qo'yilmani bosish bilan yig'ilgan oyna o'lchamlari qayta tiklanadi.



1.8-rasm. Oynalar bilan ishlash

Sichqonchani qo‘llash imkoniyati bo‘lmagan holda klaviatura orqali oynani yig‘ish va yoyish mumkin. Buning uchun quyidagi tartibda amallar bajariladi.

Xizmatchi menyuni ochish uchun **Alt** + **Bo‘shliq** (Probel) klavishlar kombinatsiyasi bosiladi. Ochilgan tizim menyusi *Восстановить* (Tiklash), *Развернуть* (Yoyish) va *Свернуть* (Yig‘ish) bo‘limlarini o‘z ichiga oladi (1.9-rasm). Bulardan joriy vaqtda foydalanish mumkin bo‘lganlari faol bo‘ladi. Zarur buyruqqa mos bo‘lgan menyu satri tanlanadi.



1.9-rasm. Tizim menyusidan foydalanish


Ayrim dasturlarda alohida oynalarda joylashgan bir necha hujjatlar bilan ishlash mumkin. Bu oynalar ham dastur oynasi ishchi sohasida yoyish va yig‘ishni yuqoridagi kabi bajarishi mumkin.

1.8. Oynani yopish


Hujjat yoki dastur bilan ishlashni tugallagandan soʻng, oynani yopish zarur. Bunda *Ish stolida* joy, hamda kompyuter resurslari boʻshaydi. Oynani yopishda oyna bilan birga *Masalalar panelida* uning qoʻyilmasi ham oʻchiriladi.



Hujjat bilan ishlashda, uni yopishdan oldin, hujjat saqlanganligiga ishonch hosil qilish zarur. Agar hujjat saqlanmagan boʻlsa, barcha qilingan ishlar yoʻqoladi. Koʻpgina dasturlar bunday hollarda hujjat saqlanmaganligi haqida ogohlantiradi (1.10-rasm).



Oynani yopishning eng toʻgʻri usuli – bu menyuning mos buyruqlarini qoʻllash: *Файл* ▶ *Заккрыть* yoki *Файл* ▶ *Выход*. Ayrim dasturlarda yopish buyrugʻi murakkab koʻrinishga ega va har qanday sharoitda ham u *Файл* menyusiga joylashgan.






1.10-rasm. Hujjatni saqlash

Oynani yopishning eng sodda usuli sarlavha satrining yuqori oʻng burchagida joylashgan yopish  tugmasidan foydalanish hisoblanadi. Bu tugma barcha oynalarda mavjud.

Sarlavha satrining chap tomonida joylashgan nishonda sichqoncha tugmasini ikki marta bosish odatda oynaning yopilishiga olib keladi.  +  klavishlari kombinatsiyasi yoki sarlavha satri chap tomonidagi nishonda sichqoncha tugmasini bosish yordamida ochiluvchi xizmatchi menyu *Заккрыть* buyrugʻini oʻz ichiga olgan (1.11-rasm).

Bu usuldan *Ish stoli* ochilgan oynalar bilan yuklangan va yopish tugmasidan foydalanish mumkin boʻlmagan hollarda foydalaniladi. Xizmatchi menyuni *Masalalar panelida* joylashgan oyna qoʻyilmasida sichqoncha oʻng tugmasini bosish bilan ham ochish mumkin.  +  klavishlar kombinatsiyasi barcha hollarda joriy vaqtda faol boʻlgan oynani yopish uchun qoʻllaniladi.

Izoh. Agar bir necha hujjat oynasini ochish mumkin boʻlsa, u holda bu oynalarning har biri oʻzining yopish tugmasiga ega boʻladi. U holda faqat faol hujjat oynasini yopish uchun  +  klavishlar kombinatsiyasidan foydalanish mumkin.



1.11-rasm. Ochilgan oynani yopish usullari

1.9. Bir oynadan ikkinchi oynaga o'tish

Windows tizimida ishlash jarayonida *Ish stolida* bir vaqtda bir necha oynani ochish va zarurat tug'ilganda biridan ikkinchisiga o'tib ishlash qulay. Bu imkoniyat *Windows* tizimining bir vaqtda bir necha ishlarni bajarish imkonini beruvchi asosiy xossalaridan biridir.

Barcha ochilgan oynalar qo'yilma ko'rinishida *Masalalar panelida* tasvirlanadi. Oynalardan birortasi faol hisoblanadi va u barcha oynalar ustiga joylashadi (1.12-rasm).

Oynalar bo'yicha harakatlanish - bu faol oynani almashtirishdir. Agar *Ish stolida* zarur oynaning biror qismi ko'ringan bo'lsa, uning ixtiyoriy joyida sichqoncha tugmasini bosib, faollashtirish mumkin. Bunda oyna barcha oynalar ustiga chiqariladi.

Bunday imkoniyat mavjud bo'lmaganda *Masalalar panelidagi* qo'yilma yordamida faol oyna tanlanadi. Qo'yilmada sichqoncha tugmasini bosish uni faollashtiradi. Bunda yig'ilgan oyna yoyiladi.


Ko'pgina hollarda bir oynadan ikkinchisiga o'tish uchun **Alt** + **Tab** klavishlar kombinatsiyasi qo'llaniladi. **Alt** klavishini bosgan holda **Tab** klavishini bosish orqali ochilgan oynalardan birortasi tanlanadi. **Shift** + **Tab** klavishlarining bosilishi ochilgan dasturlarni teskari tartibda tanlash imkonini beradi. **Alt** klavishini qo'yib yuborish bilan tanlangan

nishonga mos oyna faollashtiriladi va barcha oynalar ustiga joylashadi. Bunda yigʻilgan oyna yoyiladi.



1.12-rasm. Oynalarning joylashuvi

Bir dasturda ochilgan bir necha hujjat oynasida harakatlanish uchun *Окно* menyusidan yoki $Ctrl + F_6$ klavishlar kombinatsiyasidan foydalanish mumkin (1.13-rasm).



The internal combustion engine.

It is known that for a long time scientists were looking for ways of

1.13-rasm. Bir hujjatdan boshqasiga oʻtish

1.10. Masalalar paneli yordamida oynalarni joylash

Masalalar paneli nafaqat faol oynani tanlash, balki ularning o'lichamlarini boshqarish va *Ish stolida* joylash imkonini ham beradi. Oynalarni avtomatik shunday joylash mumkinki, ularning ixtiyoriy biriga murojaat qilish qulay bo'lsin. Buning uchun Masalalar panelining kontekstli menyusidan foydalaniladi.

Masalalar panelining kontekstli menyusini ochish uchun uning bo'sh joyida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi (1.14-rasm).




1.14-rasm. Oynalarning kaskad usulida joylashuvi

Menyuning *Каскадом* buyrug'i *Ish stolida* har bir oynaning biror qismini kirish mumkin bo'lgan holatda joylash imkonini beradi. Oynalar bir-biri ustiga diogonal bo'yicha surib, to'liq yopilmagan holatda joylashtiriladi. Bunday joylashtirish oynalarning ixtiyoriy birini, ochiq joyida sichqoncha tugmasini bosib, faollashtirish imkoniyatini yaratadi.

Сверху вниз buyrug'i *Ish stolida* oynalarning bir-birini berkitmasdan joylashuvini ta'minlaydi. Bunday joylashuvda oynalar *Ish stolini* to'liq egallaydi (1.15-rasm).

Слева направо buyrug'i ham *Ish stolida* oynalarning bir-birini berkitmasdan joylashuvini ta'minlaydi.



1.15-rasm. Oynalarni ekranni to'ldirgan holatda joylashtirish

Yuqoridagi buyruqlardan birortasi bajarilgandan so'ng *Masalalar panelining* kontekstli menyusida yangi bo'lim hosil bo'ladi: *Отменить окна каскадом* yoki *Отменить окна рядом*. Bu buyruq oynalarning avvalgi o'lchami va joylashuvini tiklash uchun xizmat qiladi. Bu bo'lim menyuda qo'llagunga qadar, yoki oynalar o'lchamlarini o'zgartirishning navbatdagi buyruqlaridan birortasini bergunga qadar saqlanadi.


Ish stolini barcha oynalardan tozalash talab qilinsa, kontekstli menyuda *Освободить все* yoki *Свернуть все окна* buyrug'i tanlanadi. Bunda *Ish stolidan* tashqari barcha yoyilgan oynalar yig'iladi.

1.11. Nishonlarni tartiblash

Windows 9x operatsion tizimi *Ish stolii* va *Papkalar oynasi* nishonlar to'plamini o'z ichiga oladi. Ishlash jarayonida hujjatga kirish uchun qo'shimcha nishon yaratish mumkin. Nishonni *Ish stoliga* yoki papkaga joylab, ish sifatini oshirish mumkin.

Nishonni surish yo‘li bilan ko‘chirish mumkin. Nishon surish to‘xtatilgan joyda joylashadi. Qo‘lda surishda nishonni joylash ancha qiyin. *Windows* tizimi nishonlarni tartiblash imkonini beradi. *Ish stoli* yoki papka oynasi bo‘sh joyida sichqoncha o‘ng tugmasi bosilsa, kontekstli menyu ochiladi. Bu menyuda *Выстроить значки* bolimi tanlansa, nishonlar shartli setkaga joylashadi. Ya’ni bir-biri bilan gorizontal va vertikal bo‘yicha fiksirlangan masofada joylashadi.

Nishonlarni joylashda tartiblash turini berish mumkin. Bunday joylash *tartiblash* deyiladi. Buning uchun *Ish stoli* yoki papkalar oynasining bo‘sh joyida sichqoncha o‘ng tugmasi bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Упорядочить значки* buyrug‘i tanlanadi (1.16-rasm).



1.16-rasm. Nishonlarni tartiblash


Bu bo‘limga joylashtirilgan menyu nishonlarni tartiblashning to‘rt turini o‘z ichiga oladi: nomi bo‘yicha, turi bo‘yicha, o‘lchami bo‘yicha va yaratilgan vaqti bo‘yicha. Zarur bo‘lim tanlanganidan so‘ng, barcha nishonlar ko‘rsatilgan tartibda joylashadi.

Berilgan tartibni avtomatik qo'llash uchun *Ish stoli* bo'sh joyida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi. Ochilgan kontekstli menyuda *Упорядочить значки* ▶ *Автоматически* buyrug'i tanlanadi. Bu holda nishonlar o'zni o'zgartirilganda yoki yangi nishon qo'shilganda va o'chirilganda nishonlar avtomatik ravishda qayta tartiblanadi. Papkada nishonlarni tartiblashni *Вид* menyusining ochiluvchi kontekstli menyusi orqali ham bajarish mumkin.

1.12. Windows tizimi ishini tugallash

Windows 9x tizimi kompyuterni o'chirish bosqichiga juda talabchan. *Windows* tizimi ishini yakunlash quyidagicha amalga oshiriladi: *Пуск* ▶ *Завершение работы*. Ochiluvchi *Windows ishini tugatish* (*Завершение работы Windows*) muloqot oynasi uchta satrni o'z ichiga oladi (1.17-rasm).

Выключить компьютер satri tanlanib, *OK* tugmasi bosilsa, *Windows* tizimi kompyuterni o'chirishga tayyorlaydi. Bu bir necha daqiqa vaqtni olishi mumkin. Ekranda hosil bo'ladigan *Теперь питание компьютера можно отключить* xabari ishni tugallashga tayyorgarlik tugaganligini bildiradi.




1.17-rasm. *Windows* ishini tugallash

Перезагрузить компьютер satri tizimni qayta yuklash uchun qo'llaniladi. Asosan yangi qurilma yoki dastur o'rnatilgandan so'ng qayta yuklash talab qilinadi.

Izoh: Agar *Перезагрузить компьютер* qo'yilmasi yoqilib, **Shift** klavishini bosib turgan holda *OK* tugmasi bosilsa, faqat *Windows* tizimi qayta yuklanadi. Bu kompyuterni to'liq yuklashga nisbatan tez bajariladi.

Перезагрузить компьютер в режиме MS-DOS satri *MS-DOS* rejimiga o'tish uchun qo'llaniladi. *Windows* boshqaruvi ostida ishlamaydigan dasturlarni ishga tushirishda qo'llaniladi.

Agar kompyuter "osilib qolsa", **Ctrl** + **Alt** + **Del** klavishlar uchligidan foydalaniladi (faqat bir marotaba). Bunda *Завершение работы программы* muloqot oynasi ochiladi. Bu oynada "osilib qolgan" dastur ishini *Завершить задачу* tugmasi yordamida tugallashga harakat qilish mumkin. Agar bu ham yordam bermasa, *Завершить работу* tugmasi yordamida *Windows* ishini tugallash mumkin (1.18-rasm).



1.18-rasm. Dastur ishini tugallash

Nazorat savollari

1. Bosh menyudan buyruqlarni tanlash usullarini tushuntirib bering.
2. Dasturlarni ishga tushirishning qanday usullarini bilasiz?
3. *Windows* tizimida ro'yxatdan o'tgan hujjatlar qanday ochiladi?
4. *Windows* tizimida ro'yxatdan o'tmagan hujjatlar qanday ochiladi?
5. Hujjat yoki dasturga yorliq (nishon) qanday yaratiladi?
6. Yangi papka qanday yaratiladi?
7. Ekranda oynalarni joylashtirish usullarini tushintirib bering.
8. Oynani yig'sh va yoyish qanday amalga oshiriladi?
9. Ochilgan oynani yopish usullarini tushuntiring.
10. Bir oynadan ikkinchi oynaga qanday o'tiladi?
11. Masalalar paneli yordamida oynalarni joylashtirish usullari.
12. Ish stoli yoki papkalar oynasida nishonlarni tartiblash.
13. *Windows* tizimi ishini tugallash qanday amalga oshiriladi?


2. Windows ma'lumotlar tizimii

2.1. Ma'lumot tizimini chaqirish

Hattoki eng malakali inson ham u yoki bu murakkab amalni bajarishni eslay olmasligi mumkin. *Windows 9x* tizimi va boshqa ko'pgina qo'yilmalar ishlash jarayonida zarur ma'lumotni olish imkonini beruvchi qo'yilmalarga ega.

Windows 9x ma'lumot tizimi *Пуск* ▶ *Справка* buyrug'i orqali ishga tushiriladi. Bunda uchta qo'yilmaga ega bo'lgan *Справка Windows* muloqot oynasi ochiladi (2.1-rasm).

Содержание qo'yilmasi iyerarxik tarkib ko'rinishida joylashgan ma'lumot tizimining barcha bo'limlarini o'z ichiga oladi.



2.1-rasm Windows ma'lumotlar tizimi oynasi

Yopiq kitob ko'rinishida ifodalangan bo'lim, quyi darajali bir necha bo'limlarni o'z ichiga olganligini bildiradi. Unda sichqoncha tugmasini ikki marta bosib, bo'lim ichidagi ichki bo'limlarni ko'rish mumkin. So'roq belgisi qog'oz nishoni ma'lumot tizimi ma'lumotnomasini ifodalaydi. Uni ochish uchun nishonda sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.


Указатель (Предметный указатель) qo'yilmasi ma'lumotlar tizimida yoritilgan asosiy tushunchalarni alfavit tartibida saqlaydi. U zarur ibora (termin)ni uning bosh harflarini kiritish orqali qidirish imkonini beradi.

Поиск qo‘yilmasi zarur iborani ma’lumotlar tizimining barcha moddalari bo‘yicha qidirish imkonini beradi. Qidiruv natijalariga ko‘ra qidirilayotgan ibora uchragan bo‘limlar ro‘yxati chiqariladi.

Ma’lumotlar oynasiga ayrim jumla yoki alohida so‘zlar silliq chiziq yoki uzuq chiziq bilan ajratilgan bo‘lishi mumkin. Bunday silliq chiziq bilan ajratilgan jumlada sichqoncha tugmasini bosish bilan boshqa bo‘limga o‘tiladi. Uzuq chizikli jumlada esa – iboraning ta’rifi yoki tushuntirishini o‘z ichiga olgan qo‘shimcha oyna ochiladi.

Ayrim hollarda ma’lumot tizimida axborotni qidirish uchun so‘rovni aniq ifodalash qiyin. U haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish mumkin, ammo, bir-ikki tushuncha topish talab qilishi mumkin. Bunday holatlarda ma’lumot ichida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan kalit so‘zlar orqali zarur bo‘lgan ma’lumotni qidirish qulay (2.2-rasm).

Введите искомое слово или слова (Введите ключевое слово для поиска) maydonida ma’lumot tizimi moddalarida topish kerak bo‘lgan so‘zlarni kiritish mumkin. Qidirishda bir necha kalit so‘zlardan foydalanish mumkin. Buning uchun birinchi kalit so‘zdan so‘ng **Bo‘shliq** (Probel) klavishini bosish zarur.



2.2-rasm. *Spravka (Справка)* oynasining *Qidirish (Поиск)* buyrug‘i

При желании выберите нужное слово из списка ro‘yxati ma’lumot tizimi moddalarida mavjud bo‘lgan va kiritilgan matnga mos keluvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi.


2.2. Namoyon bo‘ladigan yordam

Ayrim hollarda amalning to‘liq tavsifi emas, tugma yoki nishonning qisqacha vazifasini bildiruvchi tavsif talab qilinadi.

Windows 9x tizimida bunday imkoniyatni *namoyon bo‘ladigan yordam* ta‘minlaydi. Namoyon bo‘ladigan yordamni ekranga chiqarish uchun sichqoncha ko‘rsatkichini boshqaruv elementiga qo‘yib, bir oz vaqt ushlab turish kifoya (2.3-rasm).

Пуск tugmasi uchun namoyon bo‘ladigan yordam quyidagicha: *Начните работу с нажатия этой кнопки.*

Ayrim vaqtlarda matn unga ajratilgan maydonga joylashmaydi. Matnni to‘liq o‘qish uchun namoyon bo‘ladigan yordamdan foydalanish mumkin.



2.3-rasm. Namoyon bo‘ladigan yordam

Agar sichqoncha ko‘rsatkichi *Masalalar panelida* joylashgan qo‘yilmaga olib kelinsa, mos oyna sarlavhasini to‘liq o‘z ichiga olgan yordam namoyon bo‘ladi.

Ko'rsatkich vaqt indikatoriga olib kelinsa, joriy kalendar vaqti namoyon bo'ladi.


Agar ko'rsatkich indikatsiya paneli nishonlariga olib kelinsa, nishonning vazifasini ko'rsatuvchi yordam namoyon bo'ladi.

Namoyon bo'luvchi yordamni ekrandan olib qo'yish uchun sichqoncha tugmasini bosish kerak (buyruqning bajarilishiga olib kelishi mumkin) yoki sichqoncha ko'rsatkichi mos boshqaruv elementi tashqarisiga ko'chiriladi.

2.3. Muloqot oynalaridagi kontekstli ma'lumot

Muloqot oynalaridagi elementlar haqida to'liq axborotga ega bo'lish juda muhim. Ko'pgina muloqot oynalarining boshqaruv elementlari ularning vazifalari haqida kontekstli ma'lumot olish imkonini beradi. Agar boshqaruv elementida sichqoncha o'ng tugmasi bosilsa, *Что это такое?* buyrug'ini o'z ichiga olgan oyna ochiladi.

Bu tugmada sichqonchanning chap tugmasi bosilsa, boshqaruv elementi haqida axborotni o'z ichiga olgan ma'lumot oynasi ochiladi. Ayrim ilovalarda (masalan, *Microsoft Word* matn protsessori) bu oraliq bosqich tushirib qoldiriladi, ya'ni sichqoncha o'ng tugmasi bosilganda ma'lumot oynasi to'g'ridan – to'g'ri ochiladi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Element haqida axborot olish

Bunday axborot olishning boshqacha usuli ma'lumot tugmasidan foydalanishdir. Odatda bu tugma muloqot oynasining sarlavha satrida yopish tugmasi yonida joylashadi. Agar ma'lumot tugmasi mavjud bo'lmasa, bu usulni qo'llab bo'lmaydi.

Ma'lumot oynasi avtomatik yopilmaydi. Uni yopish uchun ekranning ixtiyoriy joyida sichqoncha tugmasini bosish kifoya. Bunday tugmani bosish boshqa natijalarga olib kelmay, faqat ma'lumot oynasini yopish uchun xizmat qiladi.

Ayrim muloqot oynalarida barcha boshqaruv elementlari ma'lumot bilan ta'minlanmagan. Bunday hollarda ma'lumot oynasi ma'lumot axboroti yo'qligini ko'rsatadi.

Nazorat savollari

1. *Windows* ma'lumotlar tizimi qanday chaqiriladi?
2. Ma'lumotlar tizimining *Поиск (Qidirish)* buyrug'idan qanday foydalaniladi?
3. Ma'lumotlar tizimida axborot qidirishni tushintirib bering.
4. Namoyon bo'ladigan yordam haqida nimalar bilasiz?
5. Muloqot oynalarida kontekstli ma'lumot qanday chiqariladi?

3. Windows 9x fayl tarkibi

Windows 9x da papka va fayllar diskda iyerarxik tarkibni hosil qiladi. Fayl tarkibni tashkillashtirish juda sodda. Fayllar papkalarda joylashadi. Papkalar boshqa yuqori darajali papkalarga joylashadi. Eng yuqori darajali papka o'zak deb ataladi va har bir diskda bitta bo'ladi. Qidirish yo'li o'zak papkadan boshlanadi va qidirilayotgan fayl joylashgan ichki papkalardan o'tadi. Fayl tarkibini yaratish va xizmat ko'rsatish operatsion tizimning asosiy amallaridan biridir.

Ammo, ayrim hollarda *Ish stolida* nishoni bo'lmagan hujjatni ochish, nusxasini olish yoki o'chirish, talab qilinadi. Bunday hollarda faylni qidirish kerak. Dasturlar bilan bu oson – *Bosh menyu* yordamida qidirish qiyin emas. Hujjat fayllarini qidirish uchun maxsus *qidiruvchi* yoki *navigatsion holatlar* zarur. *Windows 9x* operatsion tizimi fayl tarkibi bo'yicha navigatsiyaning bir necha uslublarini o'z ichiga oladi. Avtonom kompyuterlarda asosiy navigatsion holat bo'lib *Yo'lboshchi (Проводник)* va *"Мой компьютер"* oynalar tizimi xizmat qiladi.

Yo'lboshchi (Проводник) - bu xizmatchi dastur bo'lib, fayllar tarkibini ko'rish va ularga xizmat qilish uchun mo'ljallangan. Bu dasturning vazifasi shunchalik kattaki, operatsion tizimning deyarli ixtiyoriy joyidan unga kirish mumkin.

Yo'lboshchi (Проводник) ni ishga tushirishning asosiy usuli boshqa dasturlar kabidir. Ishga tushirishning sodda usuli *Пуск* nishonida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Проводник* buyrug'i tanlanadi. Bundan tashqari, har qanday papka nishonida (hamda *Ish stoli* ning ayrim papka holatidagi majburiy nishonlarida, masalan *Мой компьютер*, *Портфель*, *Корзина*) sichqoncha o'ng tugmasini bosib, ochilgan menyuda *Проводник* ni ishga tushiruvchi buyrug'ini topish mumkin.


Мой компьютер nishonida sichqoncha tugmasini ikki marta bosib, *"Мой компьютер"* oynalar tizimini ochish mumkin. Bu oynada kompyuterda o'rnatilgan disklar nishonlari joylashgan. Disklarning birortasida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish bilan navbatdagi diskdagi o'zak papka oynasi ochiladi. Navbatdagi ichki papkalardan birortasini tanlab, fayllar tizimi ichiga kirib borish mumkin. Bu yo'l bilan istalgan faylga borish mumkin, ammo *Проводник* dah foydalanish ancha qulay.

Fayllar ustida amallar bajarish uchun *Проводник*, qurilmalar bilan amallar bajarish uchun esa, "*Мой компьютер*" oynalar tizimi qulay hisoblanadi.

3.1. Yo‘lboshchi (*Проводник*) da fayllar tarkibini ko‘rish




Проводник dasturi *Windows 9x* tizimida fayllar bilan ishlashning asosiy anjomi hisoblanadi. *Проводник* fayllar bilan ishlashning asosiy vositasidir, ammo eng qulay deb ayta olmaymiz. Ya’ni avval *MS-DOS* tizimi bilan ishlaganlar *Norton Commander* dasturi bu maqsadlar uchun ancha qulayligini yaxshi bilishadi.



Windows 9x uchun boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqilgan qulay fayl menedjerlari ham mavjud, ammo ularni alohida o‘rnatish zarur. Shunga qaramay, *Проводник* (3.1-rasm) bilan ishlashni o‘rganish zarur, chunki u tizimning asosiy vositasidir.



3.1-rasm. Yo‘lboshchida fayllar tarkibi

Проводник dasturi oynasi *Пуск* ▶ *Программы* ▶ *Проводник* buyrug‘i orqali ishga tushiriladi. Dastur oynasida ikkita oyna mavjud. Chap oyna-papkalar oynasi. O‘ng oyna- ma’lumotlar oynasi. Bu yerda joriy vaqtda chap oynada ochilgan (tanlangan) papkadagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Chap oynadagi papkalarni ko‘rish uchun surish yo‘lakchasidan foydalaniladi.

Yig‘ilgan papkalar  nishoni bilan belgilanadi. Nishonda sichqoncha tugmasini bosish bilan papkani ochish mumkin. Bunda nishon o‘z ko‘rinishini  nishoniga o‘zgartiradi. Papkani yig‘ish uchun  nishonida sichqoncha tugmasi bosiladi.

Chap panelda fayl tarkibining ixtiyoriy yopiq papkasi  nishonida sichqoncha tugmasini bosib ochish mumkin. Bunda papka ochilgan  shaklni oladi. O‘ng oynada undagi ma’lumotlar aks ettiriladi (papkasi va fayl nishonlari).

Agar barcha ochilgan papkalar yopilsa, *Windows 9x* iyerarxik tarkibining "o‘zagi" *Ish stoli* hisoblanadi. Bunda o‘ng oyna *Ish stolida* mavjud bo‘lgan nishonlarni ifodalaydi.

Windows 9x nuqtayi nazaridan, *Ish stoli* - bu maxsus papkadir.


3.2. "Мой компьютер" oynalar tizimida fayllar tarkibini ko‘rish

Fayl yoki papkalar guruhini bir diskdan ikkinchi diskka ko‘chirish zarur bo‘lsa, *Yo‘lboshchi (Проводник)* dan foydalanish hamma vaqt ham qulay emas. Amal bajarish uchun texnik qurilmalar, ayniqsa turli xildagi bir necha qurilma foydalanilsa, "Мой компьютер" oynalar tizimidan foydalanish qulay. "Мой компьютер" oynasini ochish uchun shu nomli nishonda sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi (3.2-rasm).

Bu oynada kompyuter tizimida mavjud bo‘lgan turli fizik qurilmalar tasvirlangan. Bizning misolda masalan, C: va D: - qattiq disklar nishonlari, egiluvchan disklar uchun disk yurituvchi qurilma -A: va E: *CD-ROM* disk yurituvchisi nishonlari ko‘rinib turibdi.

Ixtiyoriy disk o‘zak papkasi tarkibini ochish uchun uning nishonida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish kifoya. Ketma-ket ichki papkalarni ochib, "ichlariga" kirish mumkin. Bunda tizimda ikki xil holat bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda ochilayotgan oynalar bir-birining ustiga joylashadi. Ikkinchi holatda esa, yangi oyna avvalgi oyna o‘rniga ochiladi.

Har ikkala usul ham o‘z imkoniyatlari va kamchiliklariga ega. Birinchi holatda alohida bir necha oynani ochish va ulardagi ma’lumotlarni taqqoslash mumkin, bir oynadan ikkinchi oynaga surish usuli bilan fayllarni ko‘chirish mumkin. Ammo bu holatda *Ish stoli* tez ochilgan oynalar bilan berkilib qoladi. Ikkinchi holatda *Ish stoli* oynalar bilan berkilib qolmaydi, ammo ekranda bitta oyna bo‘lganligi sababli, fayllar bilan ishlash bir oz qiyinlashadi.



3.2-rasm. Мой компьютер oynasining ko‘rinishi

Bajariladigan ishlarga qarab, u yoki bu holatdan foydalaniladi. Bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish har bir oynada mavjud bo‘lgan *Вид* menyusi orqali bajariladi. Buning uchun *Вид* ▶ *Параметры* buyrug‘i bajariladi. *Параметры* muloqot oynasi ochiladi. Bu oynada *Открывать для каждой следующей папки новое окно* yoki *Просматривать содержимое открываемых папок в одном окне* qo‘yilmasi tanlanadi.

3.3. Fayllarni tasvirlash usullari

Папки oynasi yoki *Yo‘lboshchi (Проводник)* ning o‘ng oynasida fayllar nishonlarining ko‘rinishini boshqarish mumkin. Turli ishlar uchun tasvirlashning turli usullari qulay. Buning uchun *Yo‘lboshchi* ishga tushiriladi (*Пуск* ▶ *Программы* ▶ *Проводник*) yoki *Мой компьютер* nishoni orqali ixtiyoriy papka oynasi ochiladi. Menyular satrida *Вид*

buyrug'i tanlanadi (3.3-rasm). Ochiqlan menyu da fayllarni tasvirlash usulini o'zgartiruvchi to'rtta buyruq berilgan:

Вид ▶ *Крупные значки*

Вид ▶ *Мелкие значки*


Вид ▶ *Список*

Вид ▶ *Таблица*

Nishon ko'p axborotga ega bo'lsa, katta nishon ko'rinishida ifodalash qulay. Bu ajoyib nishonlarga ega bo'lgan dasturiy fayllar uchun qulay.

Agar nishonlar standart ko'rinishga ega bo'lsa (hujjatlar uchun o'rinli), kichik nishonlar ko'rinishida ifodalash qulay. Bunda nishonga nisbatan yonidagi yozuv ko'proq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Papkadagi barcha hujjatlar bir turga tegishli va bir xil nishonga ega bo'lsa, ro'yxat ko'rinishida tasvirlash qulay. Bu holda nishon hech qanday ahamiyatga ega emas, yozuv hal qiluvchi vazifani bajaradi.



3.3-rasm. Fayllarni tasvirlash

Jadval ko'rinishida ifodalash – ko'proq ma'lumotlidir. Bu holda nafaqat papkaga kiruvchi fayllar tartibi, ularning xossalari: o'lchami, turi,


yozilgan vaqti va oxirgi o'zgartirilgan vaqti ham beriladi. Jadval ko'inishda ifodalashda turli xossalarga ko'ra tartiblash qulay. Biror ustun sarlavhasida sichqoncha tugmasini bosish shu xossa bo'yicha tartiblashga olib keladi. Teskari tartibda tartiblash uchun ustun sarlavhasida sichqoncha tugmasi yana bir bor bosiladi.

3.4. Fayllardan nusxa olish va ko'chirish

Fayllardan nusxa olish va ko'chirish - ixtiyoriy operatsion tizimda fayllar ustida bajariluvchi asosiy amaldir. *Windows* tizimi bu amallarni bajarishning bir necha usullarini taklif etadi.

Surish usuli. Fayl yoki fayllar guruhining nishonini surish bilan ko'chirish mumkin. Qo'yish joyi ixtiyoriy papka, *Ish stoli* yoki *Yo'l boshchi* oynasi bo'lishi mumkin.

Papkani ochish shart emas. Fayl nishonini yopiq papka nishoniga olib kelish kifoya. Agar fayllarni surishda chap tugma o'rniga o'ng tugmadan foydalanilsa, ekranda mumkin bo'lgan harakatlar ro'yxatini chiqaruvchi kontekstli menyu ochiladi. Sichqoncha tugmasini qo'yib yuborgandan so'ng, menyuda zarur buyruq tanlanadi (3.4-rasm).




3.4-rasm. Surish usuli yordamida ko'chirish

Ma'lumot almashish buferidan foydalanish. Agar boshlang'ich va natijaviy papkalarni ochishning imkoiniyati bo'lmasa, yoki noqulay bo'lsa, fayllardan nusxa olish va ko'chirish uchun ma'lumot almashish buferidan foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagicha amallar bajariladi:

Joriy papkada fayllar tanlanadi va fayllardan ko'chirish (nusxa olish) uchun *Правка* ▶ *Вырезать* (*Правка* ▶ *Копировать*) buyrug'i beriladi (3.5-rasm). Natijaviy (fayllar qo'yiluvchi) papka ochiladi va ko'chirish yoki nusxa olishni bajarish uchun *Правка* ▶ *Вставить* buyrug'i beriladi.

Almashuv buferi orqali nusxalash amali bir fayldan bir necha nusxa olish talab qilinganda qulay. Agar nusxa olish yoki ko'chirishda qo'yilayotgan papkada shu nom bilan boshqa fayl mavjud bo'lsa, uni almashtirishni tasdiqlash to'g'risida ma'lumot chiqariladi.



3.5-rasm. Faylni ko'chirishda *Almashuv* buferidan foydalanish


Izoh. Agar surish bir disk doirasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, ko'chirish bajariladi. Nusxa olishni bajarish uchun surish paytida **Ctrl** klavishi bosib turiladi. Bu holda sichqoncha ko'rsatkichi **+** nishonini o'ziga oladi va fayldan nusxa olinayotganligini bildiradi.

Surish bir diskdan ikkinchi diskka bajarilsa, nusxa olish amali bajariladi. Bu holda sichqoncha ko'rsatkichi **+** nishonini o'ziga oladi. Ko'chirishni amalga oshirish uchun surish davrida **Shift** klavishini bosib turish zarur.

3.5. Fayl va yorliqlarni o‘chirish

Qachonlardir yaratilgan fayl va yorliqlar keraksiz bo‘lib qolishi mumkin. Ularni joy band qilmasligi uchun o‘chirib tashlash zarur bo‘ladi. O‘chirilayotgan fayllar avval qattiq diskda yaratilgan, ayrim sabablarga ko‘ra noto‘g‘ri o‘chirilgan fayllarni tiklash mumkin bo‘lgan maxsus *Savat* (*Корзина*) ga joylashadi. *Savat* (*Корзина*) nishoni *Ish stoliga* joylashgan (3.6-rasm).

Fayl yoki nishonni o‘chirish uchun avval tanlanadi (uning nishonida sichqoncha tugmasi bir marta bosiladi yoki kursorni boshqarish klavishlaridan foydalaniladi). Tanlangan faylni klaviatura yordamida **Delete** klavishini bosib o‘chirish mumkin. Faylni surish usuli bilan ham o‘chirish mumkin. Buning uchun uning nishonini *Savatga* olib borish kifoya. Bunda faylni o‘chirish to‘g‘risida so‘rov chiqarilmaydi.




3.6-rasm. Fayl yoki nishonni o‘chirish

Agar *Savat* nishoni oynalar bilan berkilgan bo‘lsa, uni qidirishning hojati yo‘q. Obyektlarni kontekstli menyu yordamida ham o‘chirish mumkin. Buning uchun o‘chirilayotgan obyektga sichqoncha o‘ng tugmasi

bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Удалить* buyrug'i tanlanadi. Faylni o'chirish - ma'lumotlarning yo'qolishiga olib kelgani uchun *Windows* tizimi o'chirish haqida so'rov chiqaradi. O'chirishni tasdiqlash uchun *Да* tugmasi bosiladi. Amalni bekor qilish uchun esa *Нет* tugmasi bosiladi (3.7-rasm).

Faylni *Savatga* tushirmasdan o'chirish ham mumkin. Bu holda faylni qayta tiklab bo'lmaydi.


Izoh. Faylni *Savatga* joylamasdan o'chirish uchun o'chirish amalini bajarish jarayonida **Shift** klavishi bosib turiladi. O'chirishni tasdiqlash to'g'risidagi so'rov bir oz boshqacha ko'rinish oladi. Agar fayl *Savatga* joylanmasa, uni tiklab bo'lmaydi.



3.7-rasm. Faylni "xavfsiz" *Savatga* o'chirishda ogohlantirish

3.6. O'chirilgan fayllarni tiklash


Zarur axborotga ega bo'lgan fayl noto'g'ri ochirilgan bo'lsa, uni tiklash imkoniyatiga ega bo'lish juda muhim. *Windows*da shunday imkoniyat nazarda tutilgan. *Windows* bilan ochirilgan fayllar avval tiklash imkoniyatini beruvchi maxsus xizmatchi papka - *Savat* (*Корзина*) ga joylashtiriladi (3.8-rasm).



3.8-rasm. O'chirilgan faylni *Savatga* joylash


Savat *Ish stolida*, *Yo'lboshchi* dasturida yoki *Мой компьютер* oynasida esa uning nishonida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish bilan ochiladi.

Savat nishoni joriy vaqtda fayllar bor yoki yo'qligiga qarab turli ko'rinishda bo'ladi (3.9-rasm).



3.9-rasm. Savatning holati: a) bo'sh savat; b) faylli savat

Savatda joylashgan fayllarni tiklash uchun kerakli fayl (fayllar) tanlanadi va *Файл* ► *Восстановить* buyrug'i beriladi. Bunda Savatdagi fayllar tiklanadi va avvalgi (o'chirishdan avval) o'zlari joylashgan papkalarga qayta joylashtiriladi (3.10-rasm).




3.10-rasm. O'chirilgan faylni tiklash

Savatda joylashgan faylni ixtiyoriy usul bilan o'chirish mumkin. Savatdan o'chirilgan faylni qayta tiklash mumkin emas.

Savatda zarur ma'lumotlar saqlangan fayllar mavjud bo'lmasa ularning barchasini bir amal bilan o'chirish mumkin. Buning uchun *Файл* ► *Очистить корзину* buyrug'i qo'llaniladi (3.11-rasm).

Очистить корзину buyrug'i *Ish stolidagi* Savat nishonining kontekstli menyusida ham joylashgan.



3.11-rasm. Savatni tozalash

3.7. Fayllar guruhini tanlash

Fayllardan nusxa olish, ko‘chirish va o‘chirish amallarini bir vaqtda bir necha fayl guruhi ustida ham bajarish mumkin. Alohida fayllar va fayllar guruhini tanlashni sichqoncha yoki klaviatura orqali bajarish mumkin. Fayllar ustida amal bajarish uchun *Yo‘lboshchi* dasturi yoki *Papkalar oynasidan* foydalanish qulay (3.12-rasm).


Ixtiyoriy papkalar oynasi ochiladi, masalan,
C:\WINDOWS\COMMAND

Alohida fayl sichqoncha tugmasini bosish bilan tanlanadi. Boshqa fayl nishonida sichqoncha tugmasini bosish avvalgi tanlashni bekor qiladi. Joriy fayldan avvalgisiga yoki navbatdagi faylga o‘tishni "*Yuqoriga*" va "*Pastga*" klaviatura klavishlari ta'minlaydi.

Biror bir harfdan boshlanuvchi faylni tanlash uchun shu harfli klavishni bosish mumkin – bunda fayllardan birinchisi tanlanadi. Harfni takroriy bosish shu harf bilan boshlanuvchi barcha fayllar guruhini tanlash imkonini beradi.

Fayllar guruhini tanlash uchun **Shift** va **Ctrl** klavishlaridan foydalaniladi.

Shift klavishini bosib turgan holda sichqoncha tugmasini bosish, avval tanlangan fayldan boshlab sichqoncha tugmasi bosilgan faylgacha oraliqdagi barcha fayllarni tanlash imkonini beradi. Ketma-ket kelgan



3.12-rasm. Fayllar guruhini tanlash

fayllarni **Shift** klavishini bosib turgan holda, kursorni boshqarish (yo‘naltirish) klavishlari yordamida ham tanlash mumkin.

Ctrl klavishini bosgan holda fayl nishonida sichqoncha tugmasini bosish qo‘shimcha fayl tanlash imkonini beradi.

Bunday tanlash yordamida ketma-ket kelmagan fayllar guruhini tanlash mumkin. **Ctrl** klavishini bosib turgan holda avval tanlangan fayl nishonida sichqoncha tugmasi bosilsa, faylni tanlash bekor qilinadi va tanlangan fayllar guruhidan chiqariladi.

Правка ► *Выделить все* buyrug‘i yoki **Ctrl** + **A** klavishlar kombinatsiyasi yordamida barcha fayllar tanlanadi.

Ctrl yoki **Shift** klavishlarini bosmasdan sichqoncha tugmasini bosish avvalgi tanlashni bekor qiladi va fayllar guruhini boshqatdan tanlash imkonini yaratadi.

Izoh. Agar papka yashirin fayllarga ega bo'lsa, *Правка* ▶ *Выделить все* (**Ctrl** + **A**) buyrug'i xavfli bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tizim xavf haqida ogohlantiradi va faylni yashirish rejimi bekor qilinmaguncha fayllarni to'liq tanlash imkonini bermaydi.

3.8. Fayllarni qidirish


Maxsus ajratilgan papkalarda fayllarni tartibli saqlash, zarur faylni qanday qidirish zarurligini har doim yaxshi ifodalaydi. Ammo tartiblilik darajasidan qat'iy nazar, ma'lum bir ma'lumotlar bor faylni qattiq diskdan qidirishga to'g'ri keladi. *Windows* tizimi ma'lum bir ma'lumotlarga ko'ra faylni qidirish vositalarini o'z ichiga olgan.

Faylni qidirish dasturini *Bosh menu* (*Пуск* ▶ *Поиск* ▶ *Файлы и папки*), *Yo'l boshchi* (*Сервис* ▶ *Найти* ▶ *Файлы и папки*) dasturi menyusi yoki F_3 klavishi yordamida ishga tushirish mumkin. *Найти* oynasida *Имя и местоположение* qo'yilmasi fayl nomi yoki nomning bir qismi ma'lum bo'lganda qo'llaniladi. Qidirishni boshlash uchun *Обзор* tugmasi yordamida mos maydon va papka tanlanib, *Найти* tugmasi bosiladi. Oynaning quyi qismida topilgan fayllar nomlari bilan qo'shimcha soha ochiladi. Bu sohada fayl nomida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish faylni ochish imkonini beradi (3.13-rasm).

Дата изменения qo'yilmasi ma'lum vaqt oralig'ida yaratilgan yoki o'zgartirilgan fayllarni qidirish uchun xizmat qiladi. Bu qo'yilmaning boshqaruv elementlari ixtiyoriy zarur vaqtni tanlash imkoniyatini beradi.

Дополнительно qo'yilmasi faylni turi, o'lchami, matn qismi bo'yicha qidirish uchun qo'llaniladi. Qidirish uchun ixtiyoriy ro'yxatdan o'tgan kengaytmali hujjatdan foydalanish mumkin. Hujjat o'lchamini aniq yoki quyi yoki yuqori o'lcham bo'yicha berish mumkin. Qidirish parametrlarini bir vaqtda bir necha qo'yilmalarda berish mumkin. Natijada barcha berilgan shartlarni qanoatlantiruvchi fayllar topiladi.

Qidirishning yangi shartlarini berish uchun *Новый поиск* (*Сброс*) tugmasi bosiladi. Bunda barcha qo'yilmalarda berilgan qidirish shartlari yangidan berilishi mumkin.



3.13-рasm. Fayllarni qidirish


3.9. Fayllarni qayta nomlash

Agar fayl nomi undagi ma'lumotlarga mos kelmasa, zarur ma'lumot qanday faylda joylashganini eslab qolish uchun fayl nomini o'zgartirish zarur. Tizim avtomatik ravishda faylga bergan nomlar va nishonlarni fayl mazmuniga mos nom va nishonga o'zgartirishni tavsiya etiladi.

Faylni qayta nomlash uchun u avval sichqoncha tugmasi bosilib ajratiladi. So'ngra uning nomi matnida sichqoncha tugmasi bosiladi. Natijada fayl nomi ramkaga olinadi va kursor hosil bo'ladi. Bu amalni

bajarishda ehtiyotkorlik talab qilinadi. Agar ketma-ket ikki marta sichqoncha tugmasi bosib yuborilsa, tizim faylni qayta nomlash o‘rniga uni ochishga harakat qiladi.

Qayta nomlash rejimiga kontekstli menyu orqali ham kirish mumkin. Buning uchun fayl nomida sichqoncha o‘ng tugmasi bosiladi. Ochilgan kontekstli menyuda *Переименовать* buyrug‘i tanlanadi (3.14-rasm).




3.14-rasm. Faylni qayta nomlash

Qayta nomlash rejimiga tez kirish - bu **F2** klavishini bosishdir.

Fayl nomini tahrirlashni tugallash uchun **Enter** klavishi, yoki ramka tashqarisida sichqoncha tugmasi bosiladi.

Agar fayl nomini tahrirlash jarayonida uning kengaytmasi o‘zgarsa, *Windows* tizimi bu fayl bilan avval avtomatik qo‘llanilgan dasturlarni qo‘llash mumkin bo‘lmay qolishi haqida ma’lumot beradi. Kengaytmani o‘zgartirish uchun *Да (Yes)*, tahrirlash rejimiga qaytish uchun *Нет (No)* tugmasi bosiladi.

Qayta nomlashda yangi nom shu papkadagi boshqa fayl nomi bilan mos kelsa, tizim bu haqida quyidagicha ma’lumot beradi.



3.15-rasm. Fayl nomini o‘zgartirishdagi xatolik


3.10. Egiluvchan diskdan nusxa olish

Fayllardan nusxa olishning har qanday amallarida turli qurilmalarni (disklar) yoki bir diskdagi turli papkalarni ifodalovchi ta'minotchi oyna va qabul qiluvchi oyna mavjud bo'лади. Ammo shunday amal mavjudki, bunda turli qurilmali ikkita oyna ochish mumkin emas. Bu amal egiluvchan disklardan nusxa olishdir (agar kompyuterda disk yurituvchi qurilma bitta bo'lsa). Egiluvchan diskarni ko'paytirish uchun *Windows 9x* tizimida maxsus buyruq mavjud.

Egiluvchan diskdan nusxa olish uchun *Yo'lboshchi* dasturi yoki *Мой компьютер* oynasida egiluvchan disk yurituvchi nishonida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi. Ochilgan kontekstli menyuda *Копировать диск* buyrug'i beriladi.

Копирование диска muloqot oynasi kompyuterda o'rnatilgan egiluvchan disk yurituvchiga ega bo'lgan ikkita jadvalni o'z ichiga olgan (3.16-rasm). Chap jadvalda joriy diskni tanlash zarur. O'ng jadval natijaviy diskni o'z ichiga olgan disk yurituvchi vazifasini bajaradi. Ikkala disk yurituvchi bir xil disk bilan ishlashi zarur, hamda ikkala jadvalda bitta qurilmani tanlash mumkin.

So'ngra nusxasi olinayotgan egiluvchan disk ko'rsatilgan disk yurituvchi (ong jadval) ga qo'yiladi va *Начать* tugmasi bosiladi. Tizim joriy diskdagi ma'lumotlarni o'qishni boshlaydi.



3.16-rasm. Diskdan nusxa olish

Agar nusxa olishda bitta disk yurituvchi qoʻllanilsa, amal bajarilgandan bir qancha vaqt oʻtgach natijaviy diskni qoʻyish toʻgʻrisida muloqot oynasi chiqariladi. Disk yurituvchida disk almashtirilganidan soʻng *OK* tugmasi bosiladi.

Nusxa olish tugallangandan soʻng *Копирование диска* muloqot oynasi ochiq qoladi va uni yana nusxa olish uchun qoʻllash mumkin. Muloqot oynasini yopish uchun *Закрывать* tugmasi bosiladi.

Nazorat savollari


1. *Yolboshchi (Проводник)* haqida nimalar bilasiz?
2. *Yolboshchi (Проводник)* da fayllar tarkibi qanday koʻriladi?
3. *Мой компьютер* oynasida fayllar tarkibi qanday koʻriladi?
4. Fayllarni qanday usullar bilan tasvirlash mumkin?
5. Fayllardan surish orqali nusxa olish.
6. Nusxa olishda *Ма'lumot almashish buferidan* foydalanish.
7. Fayl va yorliqlar qanday oʻchiriladi?
8. Oʻchirilgan fayllarni tiklash usullari.
9. Fayllar guruhi qanday tanlanadi?
10. Faylni qanday usullar bilan qidirish mumkin?
11. Faylni qayta nomlash uchun qanday amallarni bajarish lozim?
12. Egiluvchan diskdan qanday nusxa olish mumkin?

4. Operatsion tizimni sozlash

4.1. Boshqaruv panelini chaqirish

Boshqaruv paneli (Панель управления) oynasi kompyuterda turli sozlashlarni bajarish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bu oynada mavjud nishonlar yordamida turli qurilma va dasturiy vositalarni sozlash, hamda *Windows 9x* tizimi umumiy xossalarini berish mumkin.


Boshqaruv paneli (4.1-rasm) – bu Windows tizimining maxsus papkasi bo‘lib, qattiq diskda hech qanday papka bunga mos kelmaydi. Boshqaruv paneli oynasidagi nishonlar alohida xususiyatga ega bo‘lib, ularni boshqa oynalarga ko‘chirish mumkin emas.



4.1-rasm. Boshqaruv paneli (Панель управления)

Boshqaruv panelini *Пуск* ▶ *Настройка* ▶ *Панель управления* buyrug‘i orqali ochish mumkin. Bundan tashqari *Мой компьютер* oynasi orqali ham ochish mumkin. U xuddi *Мой компьютер* papkasi ichiga joylashgandek.

Boshqaruv panelini papka deb qaralgani uchun uni *Yo'lboshchi* dasturi orqali ham ochish mumkin. Bu papkani umumiy papkalar daraxti ko'rinishidan mustaqil "shox" sifatida topish mumkin. Bu usullarning hammasi juda oson (4.2-rasm).



4.2-rasm. Boshqaruv paneli (Панель управления)

Windows 98 dasturida bulardan-da qulayroq usul mavjud. U boshqaruv paneli nishonlarini o'z ichiga olgan qo'shimcha panel yaratish imkonini beradi. Bunday panel yaratish uchun Masalalar panelida sichqoncha o'ng tugmasi bosiladi va kontekstli menyuda *Панель инструментов* ► *Создать панель* buyrug'i tanlanadi.

Новая панель muloqot oynasida Boshqaruv paneli tanlanadi va *OK* tugmasi bosiladi. Yangi panel Masalalar paneliga joylashadi.

Qulaylik uchun panelni jihozlashni, Ish stolida joylashuvini o'zgartirish mumkin. Bu *Ish stoli* yuklanganlik darajasidan qat'iy nazar *Boshqaruv paneli* nishonlariga tez o'tish imkonini beradi.

4.2. Sichqonchani sozlash

Windows tizimida ishlashda sichqoncha muhim qurol hisoblanadi. Shu sababli u bilan ishlash qulay bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sichqonchani to'g'ri sozlanganligi kompyuterning sifatli ishlashi garovidir.


Sichqoncha klavishlarini sozlash *Свойства: Мышь* muloqot oynasining *Кнопки мыши* qo'yilmasi yordamida amalga oshiriladi. Bu oyna Boshqaruv panelining *Мышь (Sichqoncha)* nishonini ikki marta bosish orqali ochiladi (4.3-rasm).

Конфигурация кнопок paneli o'ng va chap qo'lda ishlovchilar uchun klavishlar joyini belgilaydi. Asosiy (chap) klavish qaysi "ishchi" barmoqda qulayligi tanlanadi. Chapaqaylar uchun *Для левой* qo'yilmasi tanlanadi.

Скорость двойного нажатия панели sichqoncha tugmasi ikki marta ketma-ket bosilgandagi vaqt intervalini sozlash uchun qo'llaniladi. Yurg'izgichni o'ngga surish intervalni qisqartiradi, chapga surish esa ko'paytiradi.

Перемещение qo'yilmasi ko'rsatkich harakati tezligi va shleyf (ozidan iz qoldirish) ni sozlash uchun xizmat qiladi. Tezlik mos surgich orqali beriladi. Surgich qancha chapda joylashsa, sichqoncha ko'rsatkichi harakatlanishi shuncha sekin bo'ladi.

Шлейф панели ko'rsatkich shleyfini berish imkonini yaratadi. Bu suyuqlik-kristalli monitorlar uchun qulay. Shleyfni yoqish uchun *Отобразить шлейф* qo'yilmasiga bayroqcha o'rnatiladi. Surgich shleyf uzunligini berish uchun xizmat qiladi.




4.3-rasm. Sichqoncha parametrlarini o'rnatish

4.3. Klaviatura ish rejimini sozlash

Bilim darajasiga qarab turlicha odamlar klaviaturadan turlicha foydalanadilar. Klaviatura shunday qurilganki, ma'lum bir klavish bosib ushlab turilsa, bir ozdan so'ng kiritilayotgan belgi hosil bo'ladi. *Windows* tizimi belgilarning takrorlanish chastotasini sozlash imkonini beradi.

Klaviaturaning ishlash tezligi *Свойства: Клавиатура* muloqot oynasining *Скорость* qo'yilmasi orqali sozlanadi. Bu oyna Boshqaruv panelida *Клавиатура* nishonida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish orqali ochiladi (4.4-rasm).



4.4-rasm. Klaviatura parametrlarini sozlash

Задержка перед началом повтора символа surgichi bosilgan klavishga mos belgining takrorlanish vaqtini aniqlash uchun xizmat qiladi. Surgich chapga surilsa, ushlanish vahti ko'payadi, o'ngga surilsa – kamayadi.

Скорость повтора surgichi belgining takrorlanish chastotasini belgilaydi. Surgich chapga surilsa, belgilar sekin hosil bo'ladi, o'ngga surilsa – tez.


Повтор символов panelining quyi qismidagi maydon kiritilgan sozlashni tekshirish uchun xizmat qiladi. Bu maydonda sichqoncha tugmasi bosilib, soʻngra biror klavish bosib turilsa, kiritilgan (ushlanish kattaligi, takrorlanish chastotasi) oʻzgarishlarni baholash mumkin.

Свойства: Клавиатура muloqot oynasining quyi qismida kursorning koʻrinish tezligi beriladi. Bu tezlik ish sifatiga taʼsir koʻrsatmaydi. Sozlash surgichi chap tomonida joylashgan matn kursori koʻrinish tezligini baholash imkonini beradi.

4.4. Vaqt va kunni sozlash

Zamonaviy kompyuterlar vaqtni belgilovchi soatga ega. Bu kompyuterning asosiy komponenti boʻlib, har bir faylni yozishda vaqt va kun roʻyxatga olinadi. Agar soat notoʻgʻri sozlangan boʻlsa, turli olingan fayllar bir-biriga mos kelmasligi va maʼlumotlarning yoʻqolishiga olib kelishi, operatsion tizim yangi talqinlarni notoʻgʻri aniqlashi, fayllarni asoslanmagan holda almashtirishni bajarishi mumkin.

Vaqt va kunni sozlash uchun *Свойства: Дата/Время* muloqot oynasidan foydalaniladi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Vaqt va kunni sozlash

Muloqot oynasini ochishning yanada qulay usuli Masalalar panelining oʻng quyi burchagida joylashgan vaqt indikatorida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosishdir. Boshqaruv paneli orqali ham *Свойства:*

Дата/Время muloqot oynasini ochish mumkin. Buning uchun *Дата и Время* nishonida sichqoncha chap tugmasi ikki marta bosiladi.

Свойства: Дата и Время muloqot oynasi ikkita qo'yilmaga ega. *Дата и Время* qo'yilmasi joriy vaqt va kunni kiritish uchun qo'llaniladi.

Zarur oy ochiluvchi ro'yxatdan tanlanadi, yil esa hisoblagich yordamida o'rnatiladi. Kalendar tanlangan oyga o'tadi va oyning joriy kunini belgilash imkonini beradi.

O'ng tomonda soat joylashgan bo'lib, raqamlar bilan ko'rsatilgan maydonda uni o'zgartirish mumkin. Joriy vaqt raqamlar bilan berilgan maydon hisoblagichi yordamida coat, minut va sekundni alohida tanlash va sozlash mumkin.

Часовой пояс qo'yilmasi vaqt maydonlarini belgilaydi. Bu Internetda ishlashda, elektron pochta orqali ma'lumotlar almashishda muhim ahamiyatga ega. Vaqt maydonini tanlash uchun ochiluvchi maydondan foydalaniladi.

4.5. Shriftlarni ko'rish va o'rnatish

Matnlar bilan ishlashda kompyuterning imkoniyat darajasi qanday shriftlar mavjudligiga bog'liq. *Windows* tizimi maxsus tizimli papkada shriftlarni saqlaydi va ularni ko'rish, yangi shriftlar qo'shish imkoniyatini yaratadi.

Windows 9x tizimi *C:\Windows\Fonts* tizim papkasida shriftlarni saqlaydi. Bu oynani oddiy yo'l bilan *Yo'l boshchi* yoki Boshqaruv panelida joylashgan nishon orqali ochish mumkin (4.6-rasm). Kompyuterda o'rnatilgan shriftlar oddiy fayl deb qaraladi.


Shrift nishonida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish orqali uni ko'rish mumkin.

Bunda shrift haqida ma'lumot, barcha simvollar to'plami, turli o'lchamli shriftda yozilgan misollar keltirilgan oyna ochiladi.

C:\Windows\Fonts papkasiga yangi shriftni o'rnatish (nusxa olish) oddiy nusxa olishga nisbatan bir oz murakkab. Yangi shrift o'rnatish uchun *Файл ► Установить новый шрифт* buyrug'i beriladi. Natijada *Добавление шрифтов* muloqot oynasi ochiladi (4.7-rasm).


Диски ochiluvchi ro'yxatida va *Папки* ochiluvchi ro'yxatida o'rnatilayotgan shriftni o'z ichiga olgan disk va papka tanlanadi. Papkada mavjud shrift fayllari *Список шрифтов* paneliga chiqariladi. So'ngra o'rnatiladigan shriftlar tanlanadi. Ro'yxatda ko'rsatilgan barcha shriftlarni o'rnatish uchun *Выделить все* tugmasini bosish kifoya.

Agar *Копировать шрифты в папку Fonts* qo‘yilmasiga bayroqcha o‘rnatilsa, shriftlar *C:\Windows\Fonts* papkasiga nusxalanadi. Aks holda ular joriy joydan boshlab qo‘llaniladi. Agar shriftlar egiluvchan disk yoki kompakt-diskdan o‘rnatilayotgan bo‘lsa, bu qo‘yilmaga bayroqcha o‘rnatish zarur.



4.6-rasm. Shriftlar ro‘yxatini korish

Tanlangan shriftlarni o‘rnatish *OK* tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi. Yangi shriftlar *C:\Windows\Fonts* papkasida yorliq yoki nishon ko‘rinishida hosil bo‘ladi.




4.7-rasm. Shriftni ko‘rish va yangi shrift qo‘shish

4.6. Ish stoli fonini sozlash

Ish stolining tashqi ko‘rinishi kompyuter bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Ish stolida bir rang o‘rniga bezak yoki fon rasmi joylash mumkin.

Ish stoli uchun fon, bezak yoki rasm *Свойства: Экран* muloqot oynasining *Фон* qo‘yilmasidan tanlanadi (4.8-rasm). *Windows* ni sozlash ko‘pgina muloqot oynalari kabi bu oynani Boshqaruv paneli (*Экран* nishoni) orqali ham ochish mumkin. Bu oynani ochishning oson usuli: Ish stolida sichqoncha o‘ng tugmasi bosiladi va ochilgan kontekstli menyuda *Свойства* buyrug‘i tanlanadi.

Ish stoliga joylashtiriladigan rasm *Рисунок* ro‘yxatidan tanlanadi. [Нет] buyrug‘i fon rasmi yo‘qligini bildiradi. Tanlangan rasm muloqot oynasining yuqori qismida joylashgan qo‘shimcha ko‘rish sohasida tasvirlanadi.



4.8-rasm. Ekran fonini sozlash.


Agar rasm o‘lchami ekran o‘lchamidan kichik bo‘lsa, rasmni turlicha joylashtirish mumkin. *Размножить* (*Windows 95*, *Растянуть* (*Windows 98*)) buyrug‘i Ish stolini rasm nusxalari bilan to‘ldiradi. *По центру* buyrug‘i rasmni Ish stoli markazida joylashtiradi.

Agar rasm berilmagan, yoki Ish stoli markazida joylashgan bo'lsa, bo'sh joylarni bezak bilan to'ldirish mumkin, masalan - bir xil rang bilan. Buning uchun *Узор* ro'yxatida mos bezak tanlanadi. Agar standart bezaklar yoqmasa, shaxsiy bezak yaratish mumkin. Buning uchun ixtiyoriy bezak tanlanadi va *Изменить* klavishi bosiladi. *Изменить фонового узора* muloqot oynasi ochiladi. Bezak sichqoncha yordamida tahrirlanadi. Tahrirlash tugallangandan so'ng *Добавить* klavishi bosiladi. Agar bezak chiqmasa *Выход* klavishidan foydalaniladi.

4.7. Ekran qo'yilmalarini tanlash va sozlash

Ekran qo'yilmalari – mikroasturlar bo'lib, avval ekran himoyasi vositasi sifatida yuzaga kelgan. Chunki avvalgi monitorlarda ekranni qoplovchi luminofor qatlami buzilib, ekranda biror nuqta ko'p vaqt yoriqligicha qolar edi. Ekran qo'yilmalari statik tasvirlarni dinamik tasvirga almashtirib, luminoforning kuyish xavfini kamaytirar edi. Zamonaviy monitorlarda bunday xavf yo'q, ekran qo'yilmalari ekranda joylashgan doimiy ko'rinishlarni yashirish uchun o'rnatiladi.

Ekran qo'yilmasini tanlash va sozlash *Свойства: Экран* muloqot oynasining *Заставка* qo'yilmasi yordamida bajariladi (4.9-rasm).




4.9-rasm. Заставка qo'yilmasining ko'rinishi

Bu oynani Boshqaruv panelida *Экран* nishonida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosib ochish, yoki *Ish stoli* menyusidan (*Свойства* buyrug‘i) foydalanish mumkin.

Заставка qo‘yilmasining ochiluvchi ro‘yxati kompyuterda mavjud bo‘lgan barcha qo‘yilmalarni o‘z ichiga oladi va zarurini tanlash imkonini beradi. Tanlangan qo‘yilma muloqot oynasining yuqori qismida joylashgan qo‘shimcha ko‘rish sohasida tasvirlanadi.

Интервал hisoblagichi kompyuter "ishlamagan" paytda qo‘yilmani yoqish rejimini belgilaydi. "Ishlamagan" deyilganda sichqonchaning harakatlanmasligi va klaviaturadan ma‘lumotlar berilmagan holat tushuniladi.

Настройка tugmasi qo‘yilma parametrlarini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Aniq parametrlarni berish qanday qo‘yilma foydalanilganligiga bog‘liq (4.10-rasm).



4.10-rasm. Qo‘yilma parametrlarini sozlash

Пароль buyrug‘ida bayroqcha o‘rnatilsa, qo‘yilma yoqilganidan so‘ng ekranni tiklash uchun belgilangan parol kiritiladi.

Kiritilgan parolni o‘zgartirish uchun *Изменить* tugmasini bosish orqali ochiluvchi *Изменение пароля* muloqot oynasidan foydalaniladi.

Экран muloqot oynasining quyi qismida monitorni elektr energiyasi bilan ta‘minlashni sozlash paneli joylashgan. Bu yerda kompyuter va monitor energiya ta‘minoti rejimida bo‘lsa, monitoring kutish rejimiga o‘tish va to‘liq o‘chirish shartlari beriladi.


4.8. *Ish stolini jihozlash sxemalarini sozlash*

Ish stolini sozlashda oynaning barcha asosiy shrift va rangli jihozlanishini berish mumkin. Bunday sozlash mosligi jihozlash sxemasi deyiladi.

Ish stolini jihozlash sxemasini tanlash va sozlash *Свойства: Экран* muloqot oynasining *Оформление* qo'yilmasi orqali amalga oshiriladi. Bu oynani Boshqaruv panelida *Экран* nishonida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish yoki Ishchi stolining kontekstli menyusi orqali ham ochish mumkin (*Свойства* buyrug'i) (4.11-rasm).

Jihozlashni sozlash alohida elementlarni sozlash orqali bajariladi. Jihozlanayotgan element qo'shimcha ko'rish panelida sichqoncha tugmasini bosish orqali tanlanadi.

Jihozlash elementlarini ochiluvchi *Элемент* ro'yxatida nomlari bo'yicha ham tanlash mumkin. Ayrim elementlarni faqat shu yo'l orqali sozlash mumkin.



4.11-rasm. Jihozlash (*Оформление*) qo'yilmasining umumiy ko'rinishi

Размер hisoblagichi zarurat tug'ilganda tanlangan element o'lchamini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Цвет tugmasi elementni tasvirlashda foydalaniluvchi rangni tanlash imkoniyatini beradi. Unda sichqoncha tugmasi bosilsa, rang tanlash uchun ranglar palitrasi (jamlanmasi) ochiladi.

Windows 98 tizimida *Цвет 2* tugmasi ham mavjud bo'lib, bu tugma yordamida ko'p rangli elementlar uchun qo'shimcha rang tanlanadi.

Agar oyna elementi matnlarni o'z ichiga olsa, *Шрифт* ochiluvchi ro'yxati zarur bo'lgan shriftni tanlash imkonini beradi. *Размер* hisoblagichi va *Цвет* tugmasi shrift o'lchami va rangini aniqlaydi.

Masalan, **Ж** tugmasi shriftni yarim qalin, **K** tugmasi esa og‘ma ko‘rinishda tasvirlash imkonini beradi.

Oynani mustaqil sifatli jihozlash juda ham qiyin. Shu sababli *Windows* tizimi har xil ko‘rinishlarga ega bo‘lgan tayyor jihozlash sxemalarini o‘z ichiga olgan. Tayyor jihozlash sxemasini ochiluvchi *Схема* ro‘yxatidan tanlash mumkin. Qo‘shimcha ko‘rish paneli u bilan tanishish imkonini beradi.

Ish stolini jihozlash bo‘yicha sozlashni yangi jihozlash sxemasi ko‘rinishida saqlash mumkin. Buning uchun *Сохранить как* tugmasi bosiladi va sxema nomi kiritiladi.

4.9. Bosh menyuni sozlash

Odatda Bosh menyuni sozlash shart emas. *Программы* buyrug‘ida yangi dasturlarni o‘rnatishda yangi bo‘limlar avtomatik ravishda yaratiladi.

Agarda qaysidir dasturlardan ko‘proq foydalanilsa, *Bosh menyu* tarkibini bir oz o‘zgartirish mumkin.


Bosh menyuga yangi bo‘lim qo‘shishning eng oson usuli ko‘chirish usulidan foydalanishdir. Buning uchun Bosh menyuga qo‘shiladigan hujjat yoki ishga tushiruvchi fayl topladi va uning nishoni *Пуск* tugmasiga ko‘chiriladi. Bosh menyuda zaruriy xizmatchi bo‘limlar bilan chiziq bilan ajratilgan yangi bo‘lim hosil bo‘ladi va ko‘chirilgan hujjat yoki dastur nishoni hosil bo‘ladi. Bosh menyuni sozlash uchun *Свойства: Панель задач* muloqot oynasi ham xizmat qiladi. Uni ochish uchun Masalalar paneli bo‘sh joyida sichqoncha o‘ng tugmasi bosiladi. Ochilgan kontekstli menyuning *Свойства* buyrug‘ida *Настройка меню* qo‘yilmasi tanlanadi (4.12-rasm).

Добавить tugmasi yangi bo‘lim qo‘shish imkoniyatini beradi. Agar unda sichqoncha tugmasi bosilsa, nishon yaratish ustasi ochiladi.

Bo‘limni o‘chirish *Удалить* tugmasi yordamida amalga oshiriladi. *Удаление ярлыков и папок* buyrug‘ida o‘chirilayotgan bo‘lim tanlanadi va *Удалить* tugmasi bosiladi. Bunda bir necha bo‘limni o‘chirish mumkin.

Дополнительно tugmasi bosilsa, Bosh menyu bilan Yo‘lboshchidagi oddiy papka bilan ishlagan kabi ishlash mumkin. Bunda sozlashni fayllardan nusxa olish va ko‘chirish, nishon va papkalarni yaratish va o‘chirish va h.k. kabi amalga oshirish mumkin.

Windows 98 operatsion tizimida Bosh menyuning xarakterli tomonlaridan biri sichqoncha yordamida ko‘chirish usulidan foydalanib, uning tarkibini o‘zgartirish mumkin.



4.12-rasm. Bosh menyuni sozlash

Windows 98 Bosh menyusining bo‘limlari oddiy nishon kabi. Ularni Bosh menyuni toifalariaro aralashtirish, ulardan nusxa olish va hattoki Ish stoliga, papkalar oynasiga va *Windows 98* maxsus panellariga ko‘chirish mumkin.


4.10. "Документы" menyusidan foydalanish va sozlash

Bir hujjat bilan ko‘p vaqt ishlashga to‘g‘ri keladi. Hujjat ichma-ich jo‘ylashgan papkalarda bo‘lib, uni ochish qulay bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatlarda yaqinda ochilan, masalan, kecha yoki bir necha kun avval hujjatga tez murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘lish juda qulay.


Windows tizimi yaqinda ochilgan hujjatlarga Bosh menyuni: *Пуск* ▶ *Документы* orqali murojaat qilish imkoniyatini beradi. *Документы* menyusini shu kompyuterda oxirgi ochilan 15 ta hujjatni o‘z ichiga oladi. Zarur hujjat mos bo‘limda sichqoncha tugmasini bosish bilan ochiladi (4.13 a-rasm).

Документы menyusiga ma'lumotlar hujjat ochilgan yoki yaratilgan dastur orqali kiritiladi. Agarda bu *Документы* menyusi qabul qilmaydigan MS - DOS yoki dastur mundarijasi bo'lsa, hujjat haqida ma'lumotlar bo'lmasligi mumkin. Hujjat menyuga kiritilgan yoki kiritilmaganligini bilish uchun *Документы* menyusini ko'rish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Windows 98 tizimida hujjatlar ro'yxatidan tashqari *Мои документы* buyrug'ini ham tanlash mumkin. Bunda tahrirlanuvchi hujjatlarni saqlash uchun maxsus standart joy - *Мои документы* papkasi ochiladi. Shunday qilib, joriy vaqtda *Документы* menyusi yordamida ochish mumkin bo'lmagan hujjatlarni ham ochish imkoniyati yaratiladi. Agar bir kompyuter bilan bir necha kishi ishlasa, oxirgi vaqtda ishlangan hujjatlarni kimdir ko'rishi mumkin. Bu hol har doim ham ma'qul bo'lavermaydi. Bunday hollarda *Документы* menyusida fayllar ro'yxati ko'pincha xalaqit beradi.



a)



b)

4.13-rasm: a) *Документы* menyusi;
b) *Документы* menyusi ro'yxatini tozalash


Документы menyusida fayllar ro'yxatini to'liq o'chirib tashlash uchun Masalalar panelida sichqoncha o'ng klavishi bosiladi va kontekstli menyuda *Свойства* buyrug'i tanlanadi.

Свойства: Панель задач muloqot oynasida *Настройка меню* qo'yilmasi tanlanadi (4.13 b-rasm).

Очистка klavishini bosish *Документы* menyusining to'liq tozalanishiga olib keladi.

Windows 98 tizimi *Документы* menyusidan tanlab o'chirishni yanada soddalashtiradi. Agar *Документы* menyusini ochib, kerakli bo'limda sichqoncha o'ng tugmasi bosilsa, nishonga taalludli bo'lgan kontekstli menyu ochiladi. Bu menyuda *Удалить* buyrug'i tanlanib, mos nishonni o'chirish mumkin (4.14-rasm).

Hujjatni qattiq diskdan o'chirish *Документы* menyusida mos bo'limning o'chirilishini ta'minlamaydi. Bu holda hujjatni menyu orqali ochib bo'lmaydi. *Windows* vositalari yordamida hujjatni qayta nomlash va ko'chirishda *Документы* menyusida yordamida hujjatni ochish saqlanadi.



4.14-rasm. Ro'yxatdan faylni o'chirish

Nazorat savollari

1. *Boshqaruv paneli (Панель управления)* qanday chaqiriladi?
2. Sichqoncha xossalari qanday oʻrnatiladi?
3. Klaviatura ish rejimini sozlash uchun qanday amallar bajariladi?
4. Vaqt va kunni sozlash uchun qanday amallar bajariladi?
5. Shriftni koʻrish uchun nima ish qilish lozim?
6. Yangi shriftlar qanday oʻrnatiladi?
7. Ish stoli fonini sozlashni tushintirib bering.
8. Ekran qoʻyilmalari qanday tanlanadi?
9. Ekran qoʻyilmalarini sozlash tartibini misolda tushintirib bering.
10. Ish stolini jihozlash sxemasidan bilan qanday foydalaniladi?
11. Bosh menyuni sozlash uchun qanday amallar bajariladi?
12. *Документы* menyusidan qanday foydalaniladi?
13. *Документы* menyusi qanday sozlanadi?

5. Dasturiy ta'minotni o'rnatish

5.1. Windows 9x amaliy dasturlarining o'zgachaligi

Windows 95 yoki *Windows 98* uchun yangi dastur sotib olinganida, kompyuterda o'rnatilgan boshqa dasturlarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil ishlovchi dasturiy ta'minot birligini sotib oldim deb qarashimiz mumkin. Ammo unday emas. *Windows 9x* arxitekturasi asosida resurslardan birgalikda foydalanish yotadi.

Dasturiy resurslardan birgalikda foydalanish shuni anglatadiki, *Windows* tizimida ishlashga mo'ljallangan ixtiyoriy dastur, ishlash jarayonida operatsion tizim tarkibiga kiruvchi kutubxona (biblioteka)dan foydalanishdir.

Bu shuni anglatadiki, yangi dastur o'rnatilishidan avval uning ishlashi uchun operatsion tizim dasturiy resurslarining yetarliligi tekshiriladi. Agar ular yetarli bo'lmasa, kompyuterda o'z kutubxonasini o'rnatish mumkin.

Navbatdagi o'rnatilayotgan dastur ham kompyuter resurslarini tekshiradi. Bunda u avval o'rnatilgan resurslardan foydalanishi mumkin, agar resurslar yetishmasa o'z resurslarini qo'shimcha o'rnatadi. Yangi va yangi dasturlarni o'rnatish jarayonida operatsion tizimda umumiy resurslar soni ortib boradi. O'rnatilgan amaliy dasturlar orasida o'zaro bo'g'liqlik va shoxlanish esa murakkablashib boradi.

Dastur o'rnatilishi jarayonida zarur resurs kompyuterda bo'lsa, ammo resursni o'z ichiga olgan kutubxona fayli eskirgan, dastur esa yangi talqinda bo'lsa, murakkabliklar yuzaga keladi. Bunday hollarda yangi dastur eskirgan resurslarni (uning nuqtayi nazaridan) almashtirishi, qandaydir dasturlarni resursiz qoldirishi mumkin.

Dasturlarni o'chirish bundan ham murakkab. Resurslari bilan birgalikda o'rnatilgan dastur o'chirilsa, undan so'ng o'rnatilgan dasturlar ishini uzib qo'yishi mumkin. Sababi, ular bu dasturlarga asoslanib ishlashi mumkin.

Barcha bunday masalalar bilan operatsion tizimning o'zi "kurashishi" kerak. U dasturning ishlashi jarayonida yuzaga keladigan murakkab bog'lanishlarni kuzatishi zarur. Aynan operatsion tizim dasturlarni o'rnatish jarayonida yangi o'rnatishni va eski resurslarni almashtirishni boshqarish bilan shug'ullanadi. Resurslardan boshqa dasturlar foydalanayotgan bo'lsa, uni dastur bilan birgalikda o'chirishga to'sqinlik qiladi.

Shu sababli operatsion tizim dasturni o'rnatish va o'chirish uchun maxsus vositaga ega. Buning uchun Boshqaruv paneli papkasida

Установка и удаление программ nishoni mavjud. Bu amallarni faqat shu nishon yordamida bajarish zarur.


5.2. Windows uchun amaliy dastur o'rnatish

Windows tizimi xizmatchi kutubxonaning turli amaliy dasturlaridan birgalikda foydalanishga mo'ljallangan. Bu amaliy dasturlarni o'rnatish va o'chirish bosqichini bir oz murakkablashtiradi. Windows tizimi amaliy dasturini o'rnatish va o'chirish jarayonida diskda keraksiz fayllarning yig'ilishi va boshqa amaliy dasturlar ish faoliyatini buzishdan saqlanish uchun ko'rsatmalarga qat'iy amal qilish zarur.

Пуск ▶ Настройка ▶ Панель управления buyrug'i yordamida Boshqaruv paneli ochiladi.

Установка и удаление программ nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosilib, Свойства: Установка и удаление программ muloqot oynasi ochiladi.

Dasturni o'rnatish uchun Установка / удаление qo'yilmasida Установить tugmasini bosish zarur (5.1-rasm).



5.1-rasm. Dasturlarni o'rnatish va o'chirish

Natijada o'rnatish ustasi ishga tushiriladi. Master ishining navbatdagi bosqichiga o'tish *Далее* tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. O'rnatish dasturi egiluvchi disk yoki kompakt - disk o'zak katalogida biror standart nom bilan joylashadi (ko'pincha, SETUP.EXE).

Agar master mos faylni topsa, u shu faylni oʻrnatish dasturi sifatida qabul qilishni taklif qiladi. Agar master notoʻgʻri qaror qabul qilsa yoki mos fayl topilmasa, *Обзор* tugmasini bosib oʻrnatish dasturi faylini mustaqil topish mumkin.

Oʻrnatish dasturi tanlangandan soʻng *Готово* tugmasi bosiladi. Master oʻrnatish dasturini ishga tushiradi. Bu dasturda oʻrnatish parametrlari soʻraladi va beriladi.

Agar dastur *Windows* tizimi uchun moʻljallangan boʻlsa va oʻrnatish muvaffaqiyatli boʻlsa, dastur oʻrnatilgan dasturlar roʻyxatida hosil boʻladi.

5.3. *Windows 9x* qoʻshimcha komponentlarini oʻrnatish

Windows 9x dasturini kompyuterga oʻrnatishda odatda qattiq diskka koʻproq qoʻllaniladigan vositalar yoziladi. Tizimning bir qator qoʻshimcha komponentlarini zarurat tugʻilganda qoʻshimcha oʻrnatish mumkin.

Buning uchun Boshqaruv paneli ochiladi: *Пуск ▶ Настройка ▶ Панель управления*.

Свойства: Установка и удаление программ muloqot oynasini ochish uchun *Установка и удаление программ* nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.


Windows komponentlarini qoʻshish uchun *Установка Windows* qoʻyilmasi tanlanadi. Bunda avval oʻrnatilgan komponentlar avtomatik ravishda tekshiriladi. Soʻngra ekranning oʻrta qismida oʻrnatilgan komponentlar roʻyxati chiqariladi. Bu roʻyxat *Windows* tizimida oʻrnatilishi mumkin boʻlgan komponentlari toifalarini oʻz ichiga oladi. Toifa nomi yonida bayroqcha boʻlib, u toifa holatini ifodalaydi.

Agar bayroqcha oq fonda oʻrnatilgan boʻlsa, toifaning barcha komponentlari oʻrnatilgan. Kulrang fonda oʻrnatilgan boʻlsa, toifa qisman oʻrnatilgan hisoblanadi. Bayroqcha olingan boʻlsa, bu toifa komponentlari tizimda oʻrnatilmagan boʻladi (5.2-rasm).

Toifaning qanday komponentlari oʻrnatilganligini koʻrish uchun *Состав* tugmasi bosiladi. Bu toifaga kiruvchi barcha komponentlar yangi muloqot oynasida tasvirlanadi. Komponentni oʻrnatish uchun uning nomi yonida bayroqcha oʻrnatiladi. Zarur komponentlar tanlanganidan soʻng *OK* tugmasi bosiladi.

Barcha zarur komponentlar tanlanganidan soʻng *Применить* tugmasi ularni oʻrnatish imkonini beradi. Oʻrnatish jarayonida *Windows* tizimini oʻrnatuvchi kompakt-disk qoʻyish talab qilinadi. Qoʻshimcha

komponentlar oʻrnatilganda, zarurat tugʻilganda *Bosh menyu* va *Ish stoli* nishonlari qayta yangilanadi.



5.2-rasm. Windows komponentlarining oʻrnatilishi

Izoh. Operatsion tizim tarkibida juda foydali *Просмотр буфера обмена* dasturi mavjud. Tushunarsiz sabablarga koʻra bu dasturni *Windows 95* oʻrnatilayotganda oʻrnatish mumkin emas. Ammo, tizim ornatilib boʻlinganidan soʻng, uni qoʻshimcha oʻrnatish mumkin. Bu imkoniyatdan foydalaning.

5.4. MS - DOS amaliy dasturlarini oʻrnatish

Windows tizimida *MS-DOS* priljeniyelaridan ham foydalanish mumkin. Ularni oʻrnatish *Windows* uchun amaliy dasturlar oʻrnatishga nisbatan oson. Sababi, bu yerda resurslardan birgalikda foydalanish toʻgʻrisida gap yoʻq. *MS-DOS* ning har bir dasturi faqat oʻz resurslariga tayanadi. Lekin *MS-DOS* amaliy dasturlarini oʻrnatishda *Windows* amaliy dasturlarini oʻrnatish bosqichlari qoʻllaniladi.


Bosh menyu orqali Boshqaruv paneli oynasi ochiladi: *Пуск* ▶ *Настройка* ▶ *Панель управления*.

Свойства: Установка и удаление программ muloqot oynasini ochish uchun *Установка и удаление программ* nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.

Dasturni oʻrnatish uchun *Установка / удаление* qoʻyilmasida *Установить* tugmasini bosish zarur.

Natijada oʻrnatish ustasi ishga tushiriladi. Master ishining navbatdagi bosqichiga oʻtish *Далее* tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Oʻrnatish dasturi egiluvchi disk yoki kompakt - disk oʻzak katalogida biror standart nom bilan joylashadi (koʻpincha INSTALL.EXE).

MS-DOS amaliy dasturlarini oʻrnatish dasturi odatda *MS-DOS* seansida ishlaydi (5.3-rasm). Kerakli axborot kiritilgandan soʻng dasturni oʻrnatish boshlanadi. *Windows* tizimi *MS-DOS* ning oʻrnatilgan amaliy dasturlarini roʻyxatdan oʻtkazmaydi. Ularni oʻchirish "qoʻlda" bajariladi.



```
(Сеанс завершен) - UZB2LAT
Автом
Uzb2Lat of complex CyrToLat Version-1.02, Copyright (C) by Baha&Shuh, 1997.
Specification:  Uzbekian cyril text files (.TXT)
to latin text files (.LAT) conversion utility.
Usage  : Uzb2Lat <InFile> [LatFile] [/Command]
Command: /u -> Uzbek          ЎуққГгҒҒЕе
         /e -> English        ↓↓↓↓↓↓
         /1 -> RK             (ҒeIi99°•Eë)
         /2 -> EgaUzb        (°•Ғ99ҒeEë)
         /3 -> Lexicon       (ҒeIi99°•Eë)
         /0 -> From file config (ҒeIi99°•Eë)
```

5.3-rasm. MS-DOS seansi

MS-DOS amaliy dasturlarini oʻrnatishda *Ish stolida* yorliq yoki *Bosh menyuda* boʻlim yaratilmaydi. Dasturni ishga tushirishni osonlashtirish uchun ularni mustaqil yaratish mumkin.

Oʻrnatilgan *MS-DOS* dasturini ishga tushirish uchun maxsus sozlash talab qilinishi mumkin.

5.5. *Windows* amaliy dasturini oʻchirish


Agar *Windows* tizimi uchun moʻljallangan amaliy dastur notoʻgʻri oʻrnatilgan boʻlsa, uni oʻchirish qiyinlik tugʻdirmaydi. Buning uchun oʻrnatishdagi kabi aniq bosqichlarni bajarish talab etiladi. Amaliy dastur

o'chirilgandan so'ng boshqa dasturlarning ish faoliyati buzilmaydi va diskda "chiqit" qolmaydi.

Bosh menyu orqali Boshqaruv paneli oynasi ochiladi: *Пуск* ▶ *Настройка* ▶ *Панель управления*.

Свойства: Установка и удаление программ muloqot oynasini ochish uchun *Установка и удаление программ* nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.

Windows 9x tizimi orqali avtomatik ravishda o'chirilishi mumkin bo'lgan dasturlar *Установка / удаление* qo'yilmasi ro'yxatida ko'rsatiladi. Bu ro'yxatda o'chirilishi zarur bo'lgan dastur tanlanadi va *Добавить / удалить* tugmasi bosiladi (5.4-rasm).



5.4-rasm. Dasturlarni o'chirish

Bu tugmaning "ikkilangan" nomi shu bilan bog'liqki, ayrim kuchli paketlarda ayni bir vosita ham amaliy dasturni o'chirish, ham qo'shimcha komponentlarni qo'shish uchun qo'llaniladi. Ko'pgina hollarda *Windows* tizimi dasturni o'chirishni tasdiqlash to'g'risida so'rov chiqaradi.

Tasdiq olingandan so'ng dasturni o'chirish bo'yicha barcha amallarni bajaruvchi o'chirish ustasi ishga tushiriladi. Dasturni o'chirish jarayonida o'chirilayotgan fayllar *Savat (Корзина)* ga tushmaydi va ularni tiklash mumkin emas. O'chirilgan dastur *Свойства: Установка и удаление*

программ muloqot oynasining ro‘yxatidan o‘chiriladi. Dasturni o‘chirish uni qaytadan o‘rnatish orqali bekor qilinadi.

Odatda *Windows* tizimi xizmatchi kutubxonalardan qaysi biri o‘rnatilgan dasturlar tomonidan foydalanilmayotganligini mustaqil aniqlaydi va bu kutubxonalarni o‘chiradi. Munozarali holatlarda ekranda maxsus so‘rov oynasi ochiladi. Bunday holatlarda fayllarning nomlarini yozib olib, so‘ngra *Savatga* joylashtirish tavsiya etiladi. Buning sababi, boshqa dasturlar ishi buzilmaganligini tekshirishdir.

5.6. *Windows* komponentlarini o‘chirish

Windows tizimi alohida komponentlarini, mustaqil amaliy dasturlar singari, nafaqat o‘rnatish, balki o‘chirishi ham mumkin. Tizim komponentlarini o‘rnatish va o‘chirish uchun ayni bir vosita qo‘llaniladi: *Пуск ▶ Настройка ▶ Панель управления*.

Свойства: Установка и удаление программ muloqot oynasini ochish uchun *Установка и удаление программ* nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.


Windows komponentlarini o‘chirish uchun *Установка Windows* qo‘yilmasi tanlanadi. Avval o‘rnatilgan komponentlar avtomatik ravishda qidiriladi. Qidirish tugallangandan so‘ng, oynaning o‘rta qismida o‘rnatilgan komponentlar ro‘yxati chiqariladi (5.5-rasm).

Bu ro‘yxatga kiritilgan va o‘rnatilgan (bayroqcha bilan belgilangan) komponentlar o‘chirilishi mumkin. Komponentni o‘chirish uchun uning yonidagi bayroqchani olib qoyish zarur. Komponentlarni o‘chirish *Применить* tugmasi bosilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Bir amalda komponentlarni ham qo‘shish, ham o‘chirish mumkin. Komponentlarni o‘chirishdan maqsad diskda joy ochish bo‘lsa, komponentlar ro‘yxati tagida mo‘ljallanayotgan disk sohasidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin (*Windows 98*).

Ayrim hollarda komponent o‘rnatilgandan so‘ng ro‘yxatdan joy olmaydi. Bu o‘rnatilgan komponent o‘chirilmasligini, ya’ni uni o‘chirishda tizim ish qobiliyatining buzilishi mumkinligini bildiradi. *Портфель* dasturi, siqilgan disklar bilan ishlash vositalari va boshqa komponentlar shular jumlasidandir.

Windows tizimi o‘chirilgan komponentlarini ixtiyoriy vaqtda qayta o‘rnatishi mumkin.



5.5-рasm. Windows komponentlarini o'chirish

Nazorat savollari

1. *Windows* amaliy dasturlari haqida nimalar bilasiz?
2. Dasturlarning o'rnatilish tartibini tushintiring.
3. *Windows* qo'shimcha komponentlari qanday o'rnatiladi?
4. *MS-DOS* dasturlari qanday o'rnatiladi?
5. *Windows* amaliy dasturlarini o'chirish uchun qanday amallar bajariladi?
6. *Windows* komponentlarini qanday o'chirish mumkin?

Adabiyotlar

1. A.Axmedov, N.Toyloqov. «Informatika». Toshkent. 2001
2. M.Aripov. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari». Toshkent. 2002
3. Sattarov. «Informatika va axborot texnologiyalari». Toshkent. 2002
4. В.П. Леонтьев. «Новейшая энциклопедия персонального компьютера». Москва. 2000
5. Дж. Бойс. «Осваиваем Windows 95». 1995
6. Н.В. Макарова. «Информатика». Москва. Финансы и статистика. 1997
7. С. Рахмонкулова. «IBM PC шахсий компютерида ишлаш». Тошкент. 1998
8. С.Симонович, Г. Евсеев, А. Аликсеев. «Общая информатика». Москва 2000. Учебное пособие
9. С.Симонович, Г. Евсеев, А. Аликсеев. «Специальная информатика». Москва 2000. Учебное пособие
10. С.Симонович, Г. Евсеев. «Практическая информатика». Москва 2000. Учебное пособие
11. С.Симонович. «Специальная информатика». 1998
12. Қ. Урунбаева. «Windows да ишлаш». 1998

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| 1. Windows bilan ishlash asoslari | 3 |
| 1.1. Bosh menyudan buyruqlarni tanlash | 3 |
| 1.2. Dasturlarni ishga tushirish | 4 |
| 1.3. Hujjatni ochish | 5 |
| 1.4. Hujjat yoki dasturga nishon yaratish | 7 |
| 1.5. Papka yaratish | 8 |
| 1.6. Ekranda oynalarni joylash | 10 |
| 1.7. Oynani yig'ish va yoyish | 12 |
| 1.8. Oynani yopish | 14 |
| 1.9. Bir oynadan ikkinchi oynaga o'tish | 15 |
| 1.10. Masalalar paneli yordamida oynalarni joylash | 17 |
| 1.11. Nishonlarni tartiblash | 18 |
| 1.12. Windows tizimi ishini tugallash | 20 |
| Nazorat savollari | 21 |
| 2. Windows ma'lumotlar tizimii | 22 |
| 2.1. Ma'lumot tizimini chaqirish | 22 |
| 2.2. Namoyon bo'ladigan yordam | 24 |
| 2.3. Muloqot oynalaridagi kontekstli ma'lumot | 25 |
| Nazorat savollari | 26 |
| 3. Windows 9x fayl tarkibi | 27 |
| 3.1. Yo'lboshchi (Проводник) da fayllar tarkibini ko'rish | 28 |
| 3.2. "Мой компьютер" oynalar tizimida fayllar tarkibini ko'rish | 29 |
| 3.3. Fayllarni tasvirlash usullari | 30 |
| 3.4. Fayllardan nusxa olish va ko'chirish | 32 |
| 3.5. Fayl va yorliqlarni o'chirish | 34 |
| 3.6. O'chirilgan fayllarni tiklash | 35 |
| 3.7. Fayllar guruhini tanlash | 37 |
| 3.8. Fayllarni qidirish | 39 |
| 3.9. Fayllarni qayta nomlash | 40 |
| 3.10. Egiluvchan diskdan nusxa olish | 42 |
| Nazorat savollari | 43 |
| 4. Operatsion tizimni sozlash | 44 |
| 4.1. Boshqaruv panelini chaqirish | 44 |
| 4.2. Sichqonchani sozlash | 45 |
| 4.3. Klaviatura ish rejimini sozlash | 47 |
| 4.4. Vaqt va kunni sozlash | 48 |
| 4.5. Shriftlarni ko'rish va o'rnatish | 49 |

| | |
|---|-----------|
| 4.6. Ish stoli fonini sozlash | 51 |
| 4.7. Ekran qo'yilmalarini tanlash va sozlash | 52 |
| 4.8. Ish stolini jihozlash sxemalarini sozlash..... | 53 |
| 4.9. Bosh menyuni sozlash | 55 |
| 4.10. "Документы" menyusidan foydalanish va sozlash | 56 |
| Nazorat savollari..... | 59 |
| 5. Dasturiy ta'minotni o'rnatish | 60 |
| 5.1. Windows 9x amaliy dasturlarining o'zgachaligi | 60 |
| 5.2. Windows uchun amaliy dastur o'rnatish | 61 |
| 5.3. Windows 9x qo'shimcha komponentlarini o'rnatish..... | 62 |
| 5.4. MS - DOS amaliy dasturlarini o'rnatish..... | 63 |
| 5.5. Windows amaliy dasturini o'chirish..... | 64 |
| 5.6. Windows komponentlarini o'chirish | 66 |
| Nazorat savollari..... | 67 |
| Adabiyotlar | 68 |